



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

SENTYABR

№80
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 1-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 80-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2025 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 94 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туганган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20.Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қахҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadiqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакции журнала.

www.tadiqiqot.uz

ООО Tadiqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:

info@tadiqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadiqiqot.uz

Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:

info@tadiqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



Separatist movements during the period of Amir Timur

Mukhtorjon Akhmadjonov

Registrar's Office Database Manager

Fergana state university

Fergana, Uzbekistan

Annotation. Amir Timur (Tamerlane), a 14th-century Turco-Mongol conqueror, established a vast empire across Central Asia, Persia, and parts of India and Russia. His reign, while characterized by military expansion and cultural flourishing, faced persistent challenges from separatist movements. These movements, driven by regional identities, dynastic rivalries, and local grievances, threatened the cohesion and stability of the Timurid Empire. This article explores the nature and dynamics of separatist movements during Timur's rule, examining their causes, impact, and the strategies employed by Timur to suppress them.

Keywords: Amir Timur, Tamerlane, Separatism, Timurid Empire, Central Asia, Political Instability, Regionalism, Rebellion.

Introduction

Amir Timur (1336-1405), a charismatic and ruthless military leader, carved out an empire that stretched from the Mediterranean Sea to the borders of India. His rise to power involved navigating complex political landscapes, consolidating his authority in Transoxiana (modern-day Uzbekistan and Tajikistan), and launching devastating campaigns against rival powers. While Timur's military prowess and administrative acumen are well-documented, the challenges he faced from separatist movements within his empire are often overshadowed by accounts of his conquests.

Separatist movements posed a significant threat to the Timurid state by undermining its central authority, diverting resources from external expansion, and disrupting trade and commerce. These movements arose from a variety of factors, including the persistence of regional identities, the ambitions of local rulers, and the resentment of subjugated populations. Understanding the dynamics of these movements is crucial for comprehending the complexities of Timurid governance and the fragility of its imperial structure.

This article aims to examine the nature and significance of separatist movements during Amir Timur's reign. It will analyze the underlying causes of these movements, their impact on the Timurid Empire, and the strategies Timur employed to maintain control over his vast and diverse territories.



Causes of Separatist Movements. Several factors contributed to the emergence and persistence of separatist movements within the Timurid Empire.

Regional Identities: Despite Timur's efforts to create a unified empire, strong regional identities persisted in many parts of his domain. Cities like Herat, Shiraz, and Isfahan retained their own distinct cultures and political traditions, fostering a sense of local loyalty that often clashed with the centralizing ambitions of the Timurid court.

Dynastic Rivalries: The Timurid family was plagued by internal rivalries and succession disputes. Timur's sons and grandsons often vied for power, leading to rebellions and power struggles that destabilized the empire and encouraged regional separatism. The instability following Timur's death in 1405 is a prime example of this dynastic discord fueling separatist tendencies.

Local Grievances: High taxes, forced conscription, and other forms of exploitation by Timurid officials often fueled resentment among local populations. This resentment could manifest in rebellions and separatist movements, particularly in regions that had been recently conquered or that were subjected to heavy Timurid control.

Nomadic Traditions: The legacy of nomadic traditions also played a role. Many of the populations Timur controlled were traditionally nomadic or semi-nomadic, and they were accustomed to a decentralized political system. The imposition of centralized Timurid rule often clashed with these traditions, leading to resistance and rebellion.

Weak Central Control: Despite Timur's efforts to create a centralized state, the vast size of his empire and the limitations of pre-modern communication and transportation made it difficult to exert effective control over all regions. This allowed local rulers to assert their autonomy and challenge Timurid authority.

Impact of Separatist Movements. Separatist movements had a significant impact on the Timurid Empire, both during Timur's lifetime and after his death.

Diversion of Resources: Rebellions and separatist movements forced Timur to divert resources from external expansion to internal suppression. This weakened the empire's military capabilities and limited its ability to project power beyond its borders.

Political Instability: Separatist movements created a climate of political instability that undermined Timurid authority and fostered a sense of uncertainty and insecurity. This instability made it difficult to attract investment, promote trade, and maintain social order.



Economic Disruption: Rebellions and warfare disrupted trade routes, damaged infrastructure, and devastated agricultural lands. This led to economic decline and hardship for local populations, further fueling resentment and resistance.

Fragmentation of the Empire: After Timur's death in 1405, the empire rapidly fragmented into a number of independent or semi-independent states. This fragmentation was largely a result of the centrifugal forces unleashed by separatist movements and dynastic rivalries.

Weakening of Central Authority: Frequent revolts and separatist claims continually diminished the legitimacy and power of the Timurid rulers.

Timur's Strategies for Suppression. Amir Timur employed a variety of strategies to suppress separatist movements and maintain control over his empire.

Military Force: Timur was a master of military strategy and he used his formidable army to crush rebellions and enforce his authority. His campaigns were often characterized by extreme brutality, designed to instill fear and deter future resistance.

Divide and Rule: Timur skillfully exploited rivalries and divisions among local rulers and ethnic groups to weaken potential separatist movements. He often played one faction against another, preventing them from uniting against him.

Loyalty and Patronage: Timur rewarded loyal officials and military commanders with land grants, titles, and other forms of patronage. This helped to secure their allegiance and create a loyal elite that supported his rule.

Cultural Assimilation: Timur promoted Persian culture and language throughout his empire, hoping to create a sense of shared identity that would transcend regional differences. He patronized scholars, artists, and architects, turning his capital city of Samarkand into a major cultural center.

Hostage Taking: Timur often took hostages from conquered territories, particularly from the families of local rulers. This ensured their good behavior and discouraged rebellion.

Conclusion

Separatist movements were a persistent challenge to Amir Timur's rule. These movements, driven by regional identities, dynastic rivalries, and local grievances, threatened the cohesion and stability of the Timurid Empire. While Timur was able to suppress many of these movements through military force, political maneuvering, and cultural assimilation, they ultimately contributed to the fragmentation of his empire after his death. The study of separatist movements during Timur's reign provides valuable insights into the dynamics of empire-building, the challenges of maintaining central authority, and the enduring power of regional identities. It underscores the importance of understanding local contexts and addressing the



grievances of subjugated populations in order to create a stable and sustainable political order. Furthermore, examining Timur's methods of suppression sheds light on the ethical dilemmas of maintaining control through force and the long-term consequences of such actions. The story of separatism under Timur is a vital component of understanding the complex and turbulent history of Central Asia.

References

1. Beatrice Forbes Manz, *The Rise and Rule of Tamerlane*. Cambridge University Press, 1989.
2. Hilda Hookham, *Tamburlaine the Conqueror*. Hodder and Stoughton, 1962.
3. Thomas W. Lentz and Glenn D. Lowry, *Timur and the Princely Vision: Persian Art and Culture in the Fifteenth Century*. Los Angeles County Museum of Art, 1989.
4. Roemer, H.R. "The Successors of Timur." *The Cambridge History of Iran, Volume 6: The Timurid and Safavid Periods*. Edited by Peter Jackson and Lawrence Lockhart. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
5. Woods, John E. *The Timurid Dynasty*. Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies, 1990.
6. Bahridin, U. (2019). Ferghana in the period of Amir Timur's struggle for power (1360-1370). *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(1), 3180-3187.
7. Usmonov, B. A. (2021). A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376. *Design Engineering*, 6174-6187.
8. Usmonov, B. (2021, August). ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1239>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

XITOIY MUSIQA SAN'ATIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Amirjonova Charos Qobiljon qizi

Ilmiy rahbar: Xitoyshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi,
PhD Noiba Abbosxanovna Valiyeva

Xitoy xalqi qadimiy tarixga, boy madaniyat va san'atga merosiga ega. Ayniqsa musiqa san'ati xitoy jamiyatida faqatgina estetik zavq manbai emas, balki falsafiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi muhim hodisa sifatida qaraladi. Shu bois musiqaga oid ko'plab frazeologik birliklar shakllanib, xalq tafakkuri va badiiy qarashlarini ifodalaydi. Ushbu maqolada xitoy musiqa san'atiga oid mashhur frazeologik birliklarning mazmuni, lingvistik xususiyatlari va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Frazeologizmlar tilning badiiy-estetik boyligini ifodalash bilan birga, xalqning qadriyatlari va dunyoqarashini ham ko'rsatadi. Frazeologik birliklar esa xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, san'ati va dunyoqarashini aks ettiradi. Xitoy musiqasi bilan bog'liq iboralar asosan:

- cholg'u asboblari (琴 qín – qadimiy torli cholg'u, 瑟 sè – torli asbob, 笛 dí – nay);

- kuy va sado (音 yīn – tovush, 曲 qǔ – kuy, 声 shēng – ovoz);

- tabiat manzaralari (tog', daryo, shamol) bilan bog'liq holda ishlatiladi¹.

Bu holat musiqaning faqat estetik emas, balki falsafiy va ijtimoiy ramz sifatida qaralganini ko'rsatadi. Bundan tashqari bu iboralar musiqaning inson ruhiyati va ijtimoiy hayotdagi o'rnini ifodalovchi badiiy ramzdir.

Ko'p uchraydigan musiqa san'ati bilan bog'liq frazeologik birliklar

1. 对牛弹琴 (duì niú tán qín) – “Sigirga leyta chalish” buning ma'nosi: tushunmaydigan odamga san'at yoki bilimni tushuntirish. Madaniy ahamiyati: musiqaning estetik mazmunini har kim ham qabul qila olmasligini bildiradi.

2. 高山流水 (gāo shān liú shuǐ) – “Yuqori tog' va oqayotgan suv”. Ma'nosi: chin do'stlik, ruhiy uyg'unlik. Mazmuni: musiqa insonlar o'rtasidagi do'stlik va samimiyat ramzi sifatida talqin qilinadi.

3. 余音绕梁 (yú yīn rào liáng) – “Qolgan ovoz devorlarda aylanib yuradi” Ma'nosi: kuy yoki qo'shiqning ta'siri uzoq vaqt quloqda yangraydi. Bunda musiqaning qalbga chuqur ta'sir o'tkazish qobiliyati ifodalanadi.

¹ A. Jabborov, S. Begmatov, M. Agzamova. “O'zbek musiqasi tarixi”. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018, 9-bet.



4. 琴瑟和鸣 (qín sè hé míng) – “Qin va se sozlarining uygʻun sadosi”. Maʼnosi: er-xotin yoki insonlar oʻrtasidagi totuvlik va hamjihatlik. Maʼzmuni shundan iboratki, musiqiy uygʻunlik jamiyatdagi uygʻunlikning ramzi sifatida qaraladi.

5. 曲高和寡 (qǔ gāo hè guǎ) – “Kuy yuksak, hamnafaslar esa kam”. Maʼnosi: murakkab sanʼatni hamma ham tushunavermaydi. Bunda musiqiy didning yuqori darajasi va sanʼatni qadrlash darajasi haqida fikr yuritadi².

Lingvokulturologik tahlil. Xitoy musiqa sanʼatiga oid frazeologik birliklar uch asosiy jihatni koʻrsatadi:

- Estetik jihat – musiqa goʻzalligi, tovushning jozibadorligi.
- Ijtimoiy jihat – insonlar oʻrtasidagi munosabatlarda musiqaning ramziy ahamiyati.
- Falsafiy jihat – musiqaning hayot, tabiat va ruhiy uygʻunlik bilan bogʻliqligi.

Bu jihatlar xitoy xalqining musiqa nafaqat sanʼat sifatida, balki maʼnaviy-ruhiy qadriyat sifatida qarashini koʻrsatadi³.

Xitoy musiqa sanʼatiga oid frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, musiqiy merosi va falsafiy qarashlarini ifodalaydi⁴. Ular orqali musiqaning inson hayotidagi oʻrni, estetik qiymati va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Shu bois bu iboralarni oʻrganish lingvistika, madaniyatshunoslik va sanʼatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Agzamova. “Oʻzbek musiqasi tarixi”. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018, 189-bet.
2. R. Tursunova, G. Tursunova. “Jahon musiqa tarixi”. – T.: Voris-nashriyoti” nashriyoti, 2017, 150-bet.
3. Ch. Amirjonova. “Xitoy va Oʻzbek musiqa sanʼatining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.

Internet sayt:

1. <https://chnmusic.org.cn>

² R. Tursunova, G. Tursunova. “Jahon musiqa tarixi”. – T.: Voris-nashriyoti” nashriyoti, 2017, 47-bet.

³ Ch. Amirjonova. “Xitoy va Oʻzbek musiqa sanʼatining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.

⁴ <https://chnmusic.org.cn>



XITOIY VA O'ZBEK MUSIQIY TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI

Amirjonova Charos Qobiljon qizi

Ilmiy rahbar: Xitoyshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi,

PhD Noiba Abbosxanovna Valiyeva

Musiqqa insoniyat tarixida eng qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, u xalqning dunyoqarashi, ruhiyati va madaniy merosini ifodalaydi. Har bir millat musiqiy an'analari, cholg'ulari va qo'shiqchilik uslublariga ega bo'lib, ular o'ziga xos terminologiya orqali nomlanadi. Xitoy va O'zbekiston xalqlari musiqiy madaniyati chuqur ildizlarga ega bo'lib, ularning musiqiy terminlarini qiyosiy tahlil qilish turli xalqlarning madaniy tafakkuri va badiiy olamini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Xitoy musiqiy terminologiyasi. Xitoy musiqasi qadimiy “yīn lǜ” (音律 – tovush tizimi) nazariyasiga asoslangan bo'lib, musiqiy tushunchalar an'anaviy falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir⁵.

- 音 (yīn) – tovush, ohang;
- 乐 (yuè) – musiqqa, quvonch;
- 曲 (qǔ) – kuy, kompozitsiya;
- 调 (diào) – ohang, tonlik;
- 笛子 (dízi) – nay;
- 古琴 (gǔqín) – qadimiy yeti torli cholg'u asbobi.

Xitoy musiqiy terminlari ko'pincha falsafiy tushunchalar bilan uyg'unlashib, “yin-yang” hamda “wu xing” (besh unsur) nazariyalariga asoslanadi⁶.

O'zbek musiqiy terminologiyasi. O'zbek musiqiy merosi asosan maqom san'ati, xalq qo'shiqlari va turli cholg'ular atrofida shakllangan. Terminlar asosan arabcha, forsha va turkiy manbaalardan oziqlangan. Masalan:

- Maqom – ohang tizimi;
- Navo – kuy, ohang;
- Tanbur, dutor, rubob – torli cholg'ular;
- Qo'shiq – vokal asar;
- Usul – ritmik tuzilma;
- Shashmaqom – O'zbek klassik musiqqa tizimi.

O'zbek musiqiy terminlari ko'proq amaliy ijrochilik va folklor bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati turkiy-turkistoniy madaniyatni aks ettiradi.

1. Terminlarning kelib chiqishi:

⁵ R.Tursunova, G.Tursunova. “Jahon musiqqa tarixi”. – T.:Voriz-nashriyoti” nashriyoti, 2017,49-bet.

⁶ Ch. Amirjonova. “Xitoy va O'zbek musiqqa san'atining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.



- Xitoy terminlari asosan mahalliy manbaalardan (xitoy irogliflari va qadimiy falsafiy tizimlardan) shakllangan.

- O'zbek terminlari esa turli madaniyatlar – turkiy, fors-tojik va arab musiqiy an'analari ta'sirida boyigan⁷.

2. Nazariy asos:

- Xitoy musiqasi “yin-luy” tizimi va falsafiy qarashlarga tayanadi.

- O'zbek musiqasi esa maqom tizimiga asoslanadi.

3. Cholg'ular nomlanishi:

- Xitoyda cholg'u nomlari ko'pincha ularning materiali yoki shakliga bog'liq (masalan, pipa – “to'rt torli cholg'u”, sheng – shoxli cholg'u).

- O'zbek cholg'ulari esa ko'proq tor soni yoki ijro uslubidan kelib chiqqan (masalan, dutor – ikki torli, tanbur – cho'zilma torli cholg'u).

4. Terminlarning semantik doirasi:

- Xitoyda 乐 yuè so'zi nafaqat “musiq”, balki “quvonch, hursandchilik” ma'nosida ham ishlatiladi.

- O'zbek tilida esa “navo” yoki “maqom” musiqiy ohangni bildirsa-da, ular keng falsafiy tushunchaga ega emas.

Xitoy va O'zbek musiqiy terminologiyasi turli tarixiy-madaniy asoslarda shakllangan bo'lsa-da, ularning umumiy jihati – milliy musiqa merosini asrab-avaylash va badiiy-estetik tushunchalarni ifodalashga xizmat qilishidir. Xitoy terminlari falsafiy-mantiqiy tizim bilan uyg'unlashgan bo'lsa, o'zbek terminlari xalqona ijro, maqom va an'ana bilan chambarchas bog'langan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Tursunova, G.Tursunova. “Jahon musiqa tarixi”. – T.: Voris-nashriyoti” nashriyoti, 2017, 49-bet.

2. Ch. Amirjonova. “Xitoy va O'zbek musiqa san'atining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.

3. Ch. Amirjonova. “Xitoy va O'zbek musiqa san'atining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.

Internet sayt:

2. <https://chnmusic.org.cn>

⁷ Ch. Amirjonova. “Xitoy va O'zbek musiqa san'atining qiyosiy tahlili”. – T.: “International journal of social science and interdisciplinary research” 2025, 2-bet.



MUSTAQILLIK BAYRAMING MUBORAK BO‘LSIN ONA VATANIM

Allanova Gulmira Baltabaevna

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumani
maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli
20-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mustaqillik insonning, davlatning qadr-qimmat. Mustaqillik samarasi mamlakatning rivojlanib, gullab-yashnashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mustaqillik tufayli inson o‘z yurtida baxtli yashay oladi. Shu bois har bir inson o‘z mamlakatining tinchligi, mustaqilligining qadriga yetishi kerak.

Kalit so‘z: inson, avlod, Mustaqillik, inson qadri, oliy o‘quv yurtiga, vatan, jahon, tinchlik.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlar, tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzot borki, avlod ajdodi kimligini nasl –nasabini, o‘zi tug‘ilgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi. O‘zlikni anglash, tarixni bilishdan boshlanadi. Mustaqillik bu davlatning, insonning erkinligi, inson uchun muhim bir qism hisoblandi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng 34 yil o‘tib hayratlanarli darajada o‘zgarishlar, rivojlanishlar bo‘lmoqda. Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda barcha soha: sport, tibbiyot, ta‘lim, turizm, qurilish sohalarida beqiyos o‘zgarishlar yuz berdi. Sport bo‘yicha mamlakatimiz bayroqlari baland ko‘tarilmoqda. Sport sohasi bo‘yicha bayrog‘imiz jahon arenalarida yuqorida ko‘rinmoqda. Kurash sport turi bo‘yicha sportchilarimiz jahon chempionatida 6 medal bilan, futbol bo‘yicha jahon chempionatida g‘olib o‘rinlarni egallamoqda. Ta‘lim sohasida ham yangilanishlar soni ortib bormoqda. Shu bilan birga, oliy o‘quv yurtiga kirish kvota o‘rinlarining ortishi, oliy o‘quv yurtini tamomlagan bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash darajasi ham yuksalib bormoqda.

Oliy o‘quv yurtlariga yoshlarning kirish darajasi oshib boryapti. Qurilish sohasida yurtimizda bir qator yangi ko‘p qavatli uylar, yangi maktablar, bolalar bog‘chalari qad rostlamoqda. Yurtimiz bo‘ylab barcha ko‘chalar asfaltlanmoqda, yashil maydonlar qad rostlamoqda hamda yildan-yilga chiroyli tus olib, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egallamoqda. Bunday yangilanish, ko‘rkamlashish sababi har yili Mustaqillik bayramida nishonlanadi. Bu yil mustaqilligimizning 34 yilligiga bag‘ishlab Qonliko‘l tumanimizning ham yangiliklari, bayramga bag‘ishlangan sovg‘alari, yutuqlari ko‘p.

Ushbu bayramga maktabimiz jamoasi ham qizg‘in tayyorgarlik ko‘rib, mustaqilligimizning 34 yilligining munosib nishonlanishida o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.





THE USE OF JIGSAW READING METHOD TO INCREASE STUDENTS' MOTIVATION IN READING PRACTICE

Ibrokhimov Mukhammadali Lutfillo's son

Teacher, Zed Avlod School, Turakurgan city,
Namangan region, Uzbekistan

Email: muhammadalipg8@gmail.com

Abstract This thesis discusses the use of the Jigsaw Reading method as a way to increase students' motivation to practice reading passages. Many students feel tired and bored when they read long texts, especially authentic materials taken from exams. The aim of this study was to investigate whether Jigsaw Reading can make reading practice more engaging and effective. The results showed that this method reduces students' boredom, creates interactive lessons, and improves motivation to participate in reading activities.

Keywords: Jigsaw Reading, motivation, reading passages, student engagement.

Reading is one of the most important part of language learning, yet many students face some difficulties when they practice it. I also observed my classes and noticed that reading is becoming more challenging for them. My students are tired and demotivated when they are practiced on their reading skills. I use reading passages of authentic test materials. And when it comes to practice their reading skills, they normally do not want to practice.

After some searches online, I found that Jigsaw Reading method can motivate students to practice reading passages. And I decided to implement this method on my teaching in order to know whether this method influences effectively or not.

1. Why do I believe that my students feel demotivated when reading?
2. Why are students unwilling to practice reading passages?
3. Do other teachers find the Jigsaw Reading method effective, and why?

In order to know whether my students are demotivating or not, I ask questionnaires them about are they really tired or unwilling when they work on reading passages. They all argued that they felt bored when they saw long reading passages.

I tried to get specific data on what areas of reading exercises are boring. So I made a survey.

Survey results showed that 6 students over 7 argued they feel tired when they read long passages, and sometimes they cannot understand the meaning of the words in the passages.

I also found that they prefer medium size reading passages, and it is important for only one student whether which part of the lesson I give the passages.

Then I asked my colleagues whether they use Jigsaw Reading method. They responded that they used this method in their lessons. When they used it, it had made



the lessons interesting because students discussed the topic which they were given on passages, they were interested in others' opinions. It made the lesson more interactive and increased students' motivation.

Implementation of Jigsaw Reading.

After all considerations, I used Jigsaw Reading method in my lessons for a week. Each student practiced only a given part of the whole reading passage. It avoided to read a long passage. Lessons seemed to me more interactive and enjoyable as my colleagues said. In order to know my students' opinions on the method that I used in lesson, I did another survey.

Results and Discussion

The final survey results showed several important findings: Results showed that after implementing the Jigsaw Reading method, they did not feel boredom, and the speed of practice were faster. They also commented that doing reading practice would be comfortable in the middle of the lesson. Moreover they mentioned that they liked "listening to others opinion" more.

These results confirm that Jigsaw Reading can increase motivation and reduce negative feelings about reading. By dividing a long text into smaller, manageable parts, students feel less pressure and can focus more actively on understanding.

The study showed that the Jigsaw Reading method is an effective tool to improve students' motivation for reading practice. It reduces the difficulties of long texts and creates opportunities for interaction. Both students and teachers confirmed that this method makes lessons more engaging. Therefore, it can be recommended for teachers who want to increase reading motivation in their classrooms.

References

1. Aronson, E. (1978). *The Jigsaw Classroom*. Beverly Hills, CA: Sage.
2. Slavin, R. E. (1995). *Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice*. Allyn & Bacon.
3. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Longman.
4. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.



XALQ DOSTONLARI INTERTEKSTUAL MANBA SIFATIDA

Xomidova M.F.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

mahfuzaxon.xomidova@mail.ru

Annotatsiya Intertekstuallik matn tahlilining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, matnning barcha turlarida uchraydi. Xususan, badiiy matnlarda boshqa matnlardan parchalar: iqtiboslar, parodiyalar uchraydi. Badiiy matnlardagi intertekstuallikning asosiy manbalari Qur‘on oyatlari, hadislar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, mashhur asarlardan iqtiboslardir. O‘zbek adabiy matnlarida ham xuddi shunday. Ushbu maqolada o‘zbek xalq dostonlari intertekstlarining badiiy matnlarda uchrashi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi o‘zbek xalq dostonlari xalq orasida juda mashhur bo‘lib, ularning nomlari, qahramonlar nomlari hammaga ma‘lum. Shu bois ulardan shoir va yozuvchilar ham nasrda, ham she‘riyatda matnlararo manba sifatida keng foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, allyuziya, badiiy matn, folklor, doston, Alpomish, Go‘ro‘g‘li.

Kirish

O‘zbek badiiy matnlarida intertekstuallik hodisasini yaratishda Qur‘on, hadis, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, mashhur shoir va yozuvchilarning asarlari, jumladan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodiy merosi, shuningdek, jahon adabiyotining klassik namunalari, mashhur qo‘shiqlar, kuylar, tarixiy va ijtimoiy haqiqatlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur kichik tadqiqotimizda biz o‘zbek badiiy matnlarida xalq dostonlariga oid intertekstual birliklarga e‘tibor qaratamiz. Avvalo, doston haqida qisqacha ma‘lumot berish o‘rinli bo‘ladi. Dunyoning ayrim xalqlarida tarixiy hayotiga oid yirik voqealarni hikoya qiluvchi janrlar mavjud. O‘zbeklarda bu janr “doston” deb ataladi. “Doston” so‘zi – qiziqarli voqealarni so‘zlab berish, madh etish ma‘nolarini anglatadi. Bizning adabiyotimizda dostonlar ikki yo‘l bilan yaratilgan:

1. Folklorda asrlar davomida baxshilar tomonidan og‘zaki ijro etilgan dostonlar.
2. Shoirlar tomonidan yozma shaklda yaratilgan dostonlar[5].

Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li tug‘ilishi”, “Malikai Ayyor”, “Ravshan” kabi Go‘ro‘g‘li turkumiga oid dostonlar; “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” singari og‘zaki doston namunalari bunga misol bo‘ladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Navoiy qalamiga mansub “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” esa yozma dostonlarga kiradi. Dostonlar xalqning tarixi va madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Ular millat qadar qadimiy bo‘lib, xalqning orzu-umidlari, turmush tarzi, kelajakka intilishlari badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Shu bois xalq dostonlari, boshqa



folklor namunalari singari, xalq orasida keng ommalashgan. Dostonlarni baxshilar ijro etgan. Qadimda “baxshi” so‘zi ayrim joylarda tabib yoki ustoz ma’nolarini bildirgan bo‘lsa, hozirda asosan xalq dostonlarini kuylovchi san’atkor ma’nosida qo‘llanadi. Baxshi dostonni hech qachon bir xil usulda aytmaydi, doimo yangi so‘z va ohanglar bilan boyitadi. Professor Hodi Zarifovning ma’lumotiga ko‘ra, Bulung‘urlik Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oy davomida tinglovchilarni zeriktirmasdan kuylagan.

Yozma adabiyot vakillari – shoir va yozuvchilar ham shu xalqdan chiqqanliklari bois, dostonlardan keng foydalanganlar. Ba’zan ular badiiy asar mazmunidan kelib chiqib, ba’zan esa tayyor shakl sifatida dostonlarni matnga intertekstual birlik tarzida kiritganlar.

Masalan, o‘zbek adabiy matnlarida ko‘plab intertekstual unsurlar “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardan olinganini kuzatamiz:

<i>O‘g‘lim,</i>	<i>desang</i>	<i>osmonlarga</i>
<i>G‘irot</i>	<i>bo‘lib</i>	<i>uchgayman,</i>
<i>Chambil</i>	<i>yurtda</i>	<i>Alpomishga</i>
<i>Navkar</i>	<i>bo‘lib</i>	<i>tushgayman.</i>
<i>Padarkushdan</i>	<i>pana</i>	<i>qilib</i>
<i>Ulug‘beking</i>		<i>quchgayman,</i>
<i>G‘ichir-g‘ichir</i>		<i>tishimdagi</i>
<i>So‘lig‘imsan, Vatanim... [3, 8].</i>		

Bu misollarda G‘irot, Chambil, Alpomish kabi nomlar dostonni eslatib, she’ning mafkuraviy va mazmuniy qimmatini yanada oshiradi. Ma’lumki, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining og‘zaki ijodidagi eng qadimiy va badiiy jihatdan mukammal namunalaridan biridir. U milliy doston sifatida e’tirof etilgan. Alpomish obrazi allaqachon kuch, mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va davlat timsoliga aylangan. Zamonaviy yozuvchilar qahramonlarini kuchli, sodiq, vatanparvar qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lsalar, ularni “Alpomish” deb atashlari kifoya. O‘zbek o‘quvchisi bu intertekst orqali voqeaning mohiyatini, asar qahramonining xarakterini yoki voqealar rivojini darhol tushunib oladi. Chunki “Alpomish” nomi o‘zida yashirin mazmunni ham olib keladi. Keltirilgan misolda esa G‘irot obrazi alluziya sifatida eslatilgan. G‘irot — Alpomishning sevimli va sodiq oti bo‘lib, xalq dostonlarida yigitning ikkinchi yarmi, yaqin hamrohi sifatida tasvirlanadi. Bu bejiz emas. O‘zbek xalqi qadimdan ot totemiga katta ahamiyat bergan, ko‘plab urf-odatlar va maqollar ham otga bog‘langan. Shu sababli G‘irot obrazi xalq tarixiy hayoti va madaniyatidan kelib chiqqan holda shakllangan. G‘irot doimo Alpomishga zarur paytda yordamga keladi. Muhammad Yusuf ham bu xususiyatni ta’kidlab, intertekst orqali o‘z lirik qahramonini Vatanga xizmat qilishga, “labbay” deyishga tayyor obraz sifatida ko‘rsatadi.

“Alpomish” dostonidagi bosh qahramon Hakimbek, ya’ni Alpomish – zamonaviy adabiy matnlarda keng qo‘llaniladigan mardlik va vatanparvarlik timsoli sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Muhammad Yusufning yuqoridagi she’ridan tashqari, uning “Saylanma” to‘plamida ham “Alpomish”ga oid alluziyalar 18 joyda uchraydi. Bu holat Alpomish butun millat yigitlariga o‘rnak sifatida qo‘llaniladigan



badiiy qolipga aylanganidan dalolat beradi. “Alpomish” nomi intertekst sifatida nafaqat mardlik ramzi, balki vatanparvarlik va sadoqat timsoli sifatida ham ishlatiladi.

*Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lomagay qo‘rg‘oningga.
Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston [3, 247].*

Ushbu satrlarda shoir Alpomish obrazining vatanparvarlik mohiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Bitta alluziv nom orqali butun dostonning mazmuni, undagi voqealar rivoji yodga solinadi va natijada she’riy matndagi g‘oya yanada ravshan ifodalanadi, ta’sirchanligi kuchayadi.

“Alpomish” dostonidagi Barchin, Qaldirg‘och, Qultoy, Boybo‘ri, Boysari, Qarajon, Ultontoz kabi qahramonlar ham o‘zbek adabiy matnlarida tez-tez intertekst sifatida uchraydi. “Alpomish”dan keyin esa yozma adabiyotda “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardan, ayniqsa, bosh qahramon Go‘ro‘g‘li obrazidan intertekstual birlik sifatida keng foydalaniladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar ko‘plab xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ayrim xalqlarda hali-hanuz baxshilar tomonidan kuylanmoqda. Ushbu dostonlar o‘zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlarining epik ijodida o‘ziga xos turkum hosil qilgan. Go‘ro‘g‘li – Sibir tatarlarining, bolg‘or turklarining, eronlik ozarbayjonlarning, Stavropol turkmanlarining va afg‘on o‘zbeklarining sevimli epik qahramonlaridan biridir.

Jahon folklorida shunday keng qamrovli, turli janr va kategoriyalarni o‘zida mujassam etgan, bunday keng hudud bo‘ylab – asosan turkiy xalqlar, qisman esa noturkiy xalqlar orasida tarqalgan ko‘p qirrali epik asar mavjud emas. Shu sababli 1842-yilda ozarbayjoncha variantning 13 majlisini yozib olib, inglizcha tarjimasi bilan chop etgan diplomat A. Xodjko shunday degan edi: “Osiyoning biror burchagi yo‘qki, u yerda Go‘ro‘g‘li nomi tilga olinmasa. Hatto Bessarabiyada ham, Moldovada ham uning nomini eshitasiz. Agar yozuvchilarning shuhrati va mashhurligi ularning o‘quvchilari soni bilan o‘lchansa, Firdavsi Go‘ro‘glidan faqat birozgina ko‘proq bo‘lar edi.” [6]

Darhaqiqat, o‘zbek adabiy matnlarida ham Go‘ro‘g‘li nomi faol intertekst sifatida qo‘llanadi:

*G‘irot mingan Go‘ro‘g‘li
Bobom qani, aytinglar,
Qo‘ng‘irotlik Alpomish
Og‘am qani, aytinglar? [3, 87]*

O‘zbek “Go‘ro‘g‘li”si boshqa xalqlarnikidan ko‘lamdorligi va turkum sifatida mujassamlanishidagi murakkab tasnifiy xususiyatlari bilan farqlanadi. O‘zbek dostonlarida Go‘ro‘g‘li turkman va o‘zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, xalq va Vatan taqdiriga qayg‘uruvchi dono murabbiy sifatida tasvirlanadi. U turli



bosqinlardan o'z yurtini himoya qiluvchi va ko'plab milliy qahramonlarni tarbiyalagan arbob sifatida ulug'lanadi.

Xulosa

Dostonlardan olingan nomlar yozuvchilar tomonidan adabiy matnga turli maqsadlarda kiritiladi: ular ba'zan sarlavha, ba'zan iqtibos ko'rinishida intertekst yaratadi. Hatto mashhur o'zbek yozuvchilaridan biri — Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" nomli romani ham mavjud. Bu dostonning xalq orasidagi keng ommalashganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiy matnlarida "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari xalq dostonlaridan olingan ko'plab parchalar va alluziv nomlar uchraydi. Ular badiiy matnlarda intertekstuallikning bevosita manbasi sifatida xizmat qiladi. Dostondan keltirilgan parchalar adabiy matn mazmuni bilan uzviy qo'shilib, uning g'oyaviy mukammalligini ta'minlaydi, o'quvchining asarni tushunishini yengillashtiradi. Shu bilan birga, ular intertekstual birlik sifatida xalqning tarixi va madaniyatidan ham so'zlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фатеева Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. Т. 56. - № 5. – С. 12-21.
2. Фатеева Н. А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Серия литературы и языка. 1998. Т. 57. - №5. – С. 25 - 38.
3. Юсуф М. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 367.
4. Xomidova, M. (2023). Intertekst tushunchasi, tadqiqi va turlari. *Educational research in universal sciences*, 2(4), 902-908.
5. <https://hozir.org/xalq-dostonlari.html>
6. <https://askinfo.uz/1722/gorog-li-dostoni-haqida-ins'ho>



TIL KONTEKSTI – INSON PSIXOLOGIYASI VA IJTIMOIIY O‘ZARO TA’SIRNING ENG MUHIM KO‘ZGUSI SIFATIDA

Xasanova Yulduz Muxtor qizi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (PhD), NDU

yulduzxasanova025@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy aloqa va inson ruhiyatini ifodalash jarayonida lisoniy modellarni ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shundan iboratki, til birliklari faqatgina kommunikativ vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va ruhiy holatlarni verballashtiruvchi murakkab tizim sifatida o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, til konteksti inson psixologiyasi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning eng muhim ko‘zgusi sifatida shakllanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy aloqa, ruhiyat, kontekst, lisoniy model, verballashuv, diskurs.

Abstract. This article examines the development of linguistic models in the process of representing social communication and human psychology from both theoretical and practical perspectives. The main aim of the study is to explore linguistic units not merely as communicative tools but as complex systems that verbalize socio-cultural and psychological states. The findings indicate that linguistic context functions as one of the most important mirrors of human psychology and social interaction.

Keywords: social communication, psychology, context, linguistic model, verbalization, discourse.

Kirish. Tilshunoslikning zamonaviy bosqichida tilning faqat grammatik yoki leksik tizimini o‘rganish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Til ijtimoiy muhitda, insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi va amalda qo‘llanadi (Habermas, 1984). Shu bois, til birliklarini tahlil qilishda ularning ijtimoiy va ruhiy kontekstda qanday ishlatilishini chuqur anglash zarur.

Inson ruhiyatini namoyon etuvchi lisoniy birliklar muloqotning nafaqat axborot almashinuvi, balki hissiy holatlarni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, “men xafa bo‘ldim” kabi sodda jumla oddiy fakti bildirsa-da, “ko‘nglim cho‘kib ketdi” kabi ifoda shaxsning ruhiy holatini yanada ta’sirchanroq tarzda verballashtiradi (Vygotsky, 1986).

Mazkur maqolada ijtimoiy aloqa va inson ruhiyatini aks ettiruvchi lisoniy modellarni ishlab chiqishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda **kvalitativ yondashuv** asosida tilshunoslik va psixolingvistika nazariyalari tahlil qilindi.



1. **Diskurs tahlili:** ijtimoiy muloqotda qo'llaniladigan matnlar va nutq namunalari o'rganildi. Masalan, kundalik suhbatlar, siyosiy nutqlar, badiiy matnlar.
2. **Psixolingvistik yondashuv:** inson ruhiyati va hissiyotlari nutqda qanday verballashuvi Vygotskiy va Leontev nazariyalari asosida tahlil qilindi.
3. **Komparativ usul:** Sharq va G'arb madaniyatlaridagi ijtimoiy-ruhiy mazmunli nutqiy birliklar qiyoslandi.

Metodologik asos sifatida G. Habermasning **“Kommunikativ harakat nazariyasi”**, L. Vygotskiyning **“Nutq va tafakkur”** konsepsiyasi va T. van Deykning **“Diskurs nazariyasi”** ishlari tanlab olindi.

Tilshunoslikdagi metodologik yondashuvlarning uyg'unlashuvi tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlabgina qolmay, til va ruhiyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni turli rakurslarda ko'rib chiqishga imkon beradi. Masalan, Habermas (1984) ta'kidlaganidek, kommunikativ harakat ijtimoiy kelishuv va o'zaro tushunishni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shuning uchun, ijtimoiy-ruhiy mazmunli lisoniy birliklarni tahlil qilishda kommunikativ kontekst va intersubektivlik tamoyili alohida e'tiborga olinadi.

Psixolingvistika doirasidagi yondashuvlarda esa nutq va tafakkur bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaraladi. Vygotskiy (1934) nazariyasiga ko'ra, til inson tafakkurining tashqi ko'rinishi, ya'ni kognitiv jarayonlarni tashqi muloqotga olib chiqish mexanizmi hisoblanadi. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, inson ruhiyatidagi hissiyotlar, ichki kechinmalar va ijtimoiy tajriba til orqali “verballashtiriladi” va shaxslararo muloqotda qayta ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, T. van Deykning (1997) diskurs nazariyasi ham ushbu tadqiqot metodologiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, diskurs ijtimoiy bilim va hokimiyat munosabatlarining tili sifatida shakllanadi. Shu bois, ijtimoiy-ruhiy mazmunni ifodalovchi lingvistik modellarni tahlil qilishda nafaqat matnning semantik qatlamlari, balki uning ijtimoiy kontekstda qanday funktsional yuklama olishi ham e'tiborga olinadi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarini yanada chuqurroq ilmiy-nazariy tahlil qilishga imkon beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy aloqa va ruhiyatni ifodalash uchun quyidagi lisoniy modellar samarali hisoblanadi:

Emotsional-verballashuv modeli – shaxsning hissiyotlarini aks ettiruvchi til birliklari (masalan, metafora, epitet, ta'kid).

1. **Pragmatik-ijtimoiy model** – ijtimoiy maqom, hurmat, yaqinlik yoki rasmiylikni ko'rsatuvchi til vositalari (masalan, “siz” va “sen” farqi).
2. **Madaniy-kontekstual model** – xalqona iboralar, maqollar, ramziy ifodalar orqali jamiyat qadriyatlari va inson ruhiyati uzviy bog'lanishi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida nutqiy vaziyat va inson ruhiyati o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Masalan, stress holatida inson qisqa, buyruqohang gaplardan foydalanadi, quvonch holatida esa kengaytirilgan va ifodali gaplar qo'llaniladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, emotsional-verballashuv modeli psixolingvistik nuqtayi nazardan insonning ichki kechinmalarini tashqi til shakllarida ifodalashning



eng asosiy mexanizmidir. Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ilgari surilgan kognitiv metafora nazariyasi ham shuni ta'kidlaydiki, inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlar ko'pincha metaforalar orqali tushuntiriladi. Masalan, "yuragi muzlab ketdi" iborasi nafaqat hissiy holatni, balki shaxsning ijtimoiy vaziyatga munosabatini ham ochib beradi.

Pragmatik-ijtimoiy model esa Habermasning (1984) "Kommunikativ harakat nazariyasi" bilan bevosita bog'lanadi. Chunki til nafaqat hissiy mazmunni, balki ijtimoiy munosabatlarning darajasini ham ko'rsatadi. "Siz" va "sen" kabi murojaatlar ijtimoiy masofa, hurmat va yaqinlik darajalarini belgilovchi kuchli pragmatik markerlardir. Bu model ijtimoiy aloqa jarayonida ruhiy holat va ijtimoiy maqomning til orqali qanday "verballashuvi"ni yaqqol ko'rsatadi.

Madaniy-kontekstual model natijalarini esa van Deykning (1997) diskurs nazariyasi bilan izohlash mumkin. Diskurs ijtimoiy bilim va qadriyatlarni uzatish vositasi bo'lganligi sababli, xalqona iboralar va maqollar jamiyatning kollektiv ruhiyatini shakllantiruvchi muhim element hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "ko'ngli tog'dek ko'tarildi" iborasi xalqning ruhiy olami va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til orqali ruhiyat va jamiyat birligining mustahkamligini isbotlaydi.

Muhokama. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, til ijtimoiy-ruhiy kontekstda har doim ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, u axborot almashish vositasi, ikkinchi tomondan esa hissiy-ma'naviy holatlarni ifodalashning eng muhim shaklidir (Butler, 1990). Shuningdek, o'zbek tilidagi "ko'ngli tog'dek ko'tarildi", "dunyosi yorishib ketdi" kabi iboralar nafaqat metaforik ma'no, balki inson ruhiyatining murakkabligini yorituvchi lisoniy modellar sifatida qaralishi mumkin. Bu esa tilni nafaqat kommunikativ, balki kognitiv-ruhiy tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Chet el tadqiqotlarida ham shunga o'xshash xulosalar mavjud. Masalan, Lakoff va Johnson (1980) metaforani inson tafakkuri va ruhiyati ifodasi sifatida talqin qilgan. Demak, lisoniy modellar universal xususiyatga ega bo'lsa-da, ular milliy-madaniy xususiyatlar bilan boyiydi.

Shuningdek, zamonaviy psixolingvistika nuqtayi nazaridan til orqali ijtimoiy munosabatlar shakllanishi jarayonida diskurs tahlilining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Fairclough (1995) ta'kidlaganidek, til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy kuch va hokimiyat munosabatlarini qayta ishlab chiqaruvchi tizimdir. Shu bois, ijtimoiy-ruhiy kontekstni ifodalovchi lisoniy modellarni o'rganishda diskursiv omillar va ularning psixologik ta'siri ham inobatga olinishi kerak.

Bundan tashqari, kognitiv lingvistika doirasidagi qarashlar ham til va ruhiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq ochib beradi. Masalan, Langacker (1987) tomonidan ilgari surilgan kognitiv grammatika nazariyasiga ko'ra, til strukturasi inson idrok va tasavvurining to'g'ridan-to'g'ri mahsulidir. Demak, milliy-madaniy va psixologik jihatlar o'zaro uyg'unlashgan holda lisoniy modellar shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, tilni inson ruhiyati va ijtimoiy tajribasining "kognitiv oynasi" sifatida talqin qilish mumkin.



Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy aloqa va inson ruhiyatini aks ettiruvchi lisoniy modellarni ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ular yordamida nafaqat tilning kommunikativ xususiyatlari, balki inson ruhiyatining ichki qatlamlari ham yoritiladi. Kelgusida ushbu mavzuni yanada rivojlantirish uchun psixolingvistika, neyrolingvistika va sotsiopragmatika fanlari kesishmasida ko‘proq amaliy tadqiqotlar olib borish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Butler, J. (1990). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. Routledge.
2. Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action*. Beacon Press.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. Vygotsky, L. (1986). *Thought and Language*. MIT Press.
5. Van Dijk, T. A. (1997). *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction*. Sage Publications.
6. Leontev, A. N. (1978). *Activity, Consciousness, and Personality*. Prentice-Hall.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

THE IMPACT OF INTERNATIONAL ECONOMIC CORRIDORS ON THE
DEVELOPMENT OF TRANSPORT INFRASTRUCTURE IN
UZBEKISTAN

Shakhriyor Sadullaev

Master's Graduate of Tashkent State University of Economics
Marketing and Logistics faculty shahrisadullaev@gmail.com

Abstract. Accelerated development of geo-economic trends in Central Asia causes the need to transform and change transport infrastructure in Central Asian countries, including Uzbekistan. The intensification of Uzbekistan's economic development in recent years calls for the renewal and economic restructuring of all sectors of the economy of Uzbekistan. In this regard, attracting investment for the development of transport communications is an important task.

Keywords. CAREC; TRACECA; OBOR; SILK ROAD.

Introduction. Successful development of the country's economy, all its branches can be achieved on the basis of a developed and efficient transport and communication infrastructure. The development of the transport system and communications creates the conditions for accelerating the economic growth of the country and its integration into the world economic system. This contributes to leveling the level of social and economic development of the regions, by increasing the mobility of the population, goods and services.

Method. This article elucidates macroeconomic evaluation of the current situation of the Central Asian countries in the domain of transport communications. In this part, I will also compare the advancement of transport infrastructure of other developed and developing countries that affect directly or indirectly on the Central Asia transport development. **Analysis and results** Below, we present an analysis of the impact of the OBOR project on the development of the transport system and infrastructure of Uzbekistan. To this end, we studied the indicators that determine the density of rural roads and roadways in Uzbekistan. Moreover, we have given the indicators set the goal to compare the assessment of the role and place of Uzbekistan and its participation in the implementation of the OBOR project.

As part of the Central Asian region, Uzbekistan, of course, takes a special position. The transport network of Uzbekistan with respect to other republics of Central Asia is more developed in terms of indicators such as the density of railways and motorways. (Table 3.3.1.)

Table 3.3.1.

Density of railways and highways of the countries of Central Asia
(Km per 1 thousand square kilometers)⁸.

⁸ Тураева М.О. Транспортная инфраструктура стран Центральной Азии в условиях современной регионализации: Доклад. – М.: Институт экономики РАН, 2014. – 62 с.



Countries of the CA	Density of the rail roads	Density of roads
Kazakhstan	5,53	34,35
Kyrgyzstan	2,35	92,52
Tajikistan	4,77	194,79
Turkmenistan	6,11	120,04
Uzbekistan	8,15	193,33

The above given Table 3.3.1 depicts data on Density of railways and highways of the countries of Central Asia. It can be seen that Uzbekistan has dominated in the density of the railways among the other Central Asian countries. In terms of the density of roads, Uzbekistan the second densest roads after Tajikistan. The network of railway and highways with high-quality coverage is laid from the north to the south and from the east to the west of the republic. The country is trying independently to solve the problems of not even the greatest transport dependence on conflicting neighbors.

Figure 3.3.1.

The Angren-Pap railway line⁹



The above given Figure 3.3.1 shows data on “The Angren-Pap railway line” where It can be seen the first step (red line on Andijan) in connecting Uzbekistan to China and is allegedly nearing completion¹⁰. The project included the construction of a railway with a total length of 123.1 km, including a 19.2-kilometer tunnel. For the construction, it was planned to allocate funds in the amount of over 1.633 billion US dollars. To date, \$ 810 million has been invested. \$ 455 million was spent on the construction of the tunnel. The Angren-Pap line will directly connect the Ferghana Valley with other regions of Uzbekistan and complete the creation of a unified

⁹ <http://www.ikimap.com/map/uzbekistan-rail-proposal-would-circumvent-tajikistan>

¹⁰ <http://thediplomat.com/2016/01/can-china-fix-central-asias-soviet-rail-legacy/>



national railway network. According to forecasts, the launch of a new railway line will create conditions for the transportation of 10 million tons of national economic goods per year. It is expected that 600 thousand passengers will be transported in the first year of operation. The project provides for the construction of two tunnels. The key object of the Angren-Pap line is the construction of a tunnel through the Kamchik Pass. In September 2013, the Chinese Exim bank provided Uzbekistan with a loan of \$ 350 million to build the tunnel, and then a construction contract was signed with the Chinese company "China Railway Tunnel Group" for \$ 455 million. This tunnel will be the longest tunnel Length - 19.2 km), built by a Chinese company in Central Asia. From Uzbekistan's point of view, the main task of the new railway line is to unite the three regions (Andijan, Namangan and Fergana) with the rest of Uzbekistan in order not to be connected with the transportation of goods by rail through Tajikistan, which Uzbekistan refused in 2010. The railway should run along the northern border of Uzbekistan with Tajikistan and connect China through Uzbekistan with European countries. Regarding the Chinese position, the Chinese Ambassador to Uzbekistan S. Lizze in an interview with the Chinese source "People's Daily" does not hide that the railway tunnel through Kamchik is the largest project of cooperation between China and Uzbekistan and an important project in the construction of the economic belt of the Silk Road¹¹.

The new bridges across Amu Darya. This year, on 7 March Presidents of Uzbekistan and Turkmenistan opened new bridges across the Amu Darya. A new railway and automobile bridges between Turkmenabat-Farab through the Amudarya near the border with Uzbekistan. Bridges across the Amu Darya open a direct flow of cargo flows from the countries of the Asia-Pacific and South Asia to the Caspian Sea, and then to the Black Sea and Mediterranean regions, countries of Europe, the Caucasus, and the Middle East. This is expected to entail an increase in business activity, an influx of large investments and the creation of new jobs. The railway bridge is 1750 m long and is constructed using high seismic stability and operational strength with the expectation of super heavy freight trains. The bridge height is 10 m, the width is 60 m. The bridge overhead structures are supported by 18 reinforced concrete pillars. Piles with a diameter of 1.5 m entered the ground from the bottom of the river with a depth of more than 40 m. To protect against abrasion by deposits within the riverbed, the pile bodies are "clothed" in glass-polyester pipes. On both banks of the Amudarya in the radius of the railway bridge, a complex of bank protection works was carried out. After the opening, one of the bridges was followed by a railway train from Uzbekistan, on the other hand, a string of Uzbek trucks loaded with Turkmen car amide, textiles and other products was pulled, the report says¹². To sum up, the transport infrastructure in the region is advancing facilitating to improve export and import potential of the Central Asian countries.

International Corridors and Road networks of Uzbekistan. Uzbekistan's road system comprises 42,500 km of major highways and 183,000 km of other roads. It provides connections to all provinces, communities, and neighboring countries.

¹¹ <http://russian.people.com.cn/n/2014/0711/c31518-8754481.html>.

¹² <https://www.gazeta.uz/ru/2017/03/07/bridges/>



The role of road transport in the national economy is increasing. Road network stretches all over republic and is fairly operating condition with several limitations in wintertime, in mountain areas due to heavy snow or ice.

Figure 3.3.2.

Transport corridors of Uzbekistan¹³



The above given Figure 3.3.2 provides information on Transport corridors of Uzbekistan. To ensure foreign economic relations, today Uzbekistan uses 6 transport corridors:

1. Transit through Kazakhstan and Russia in the direction of the ports of the Baltic states Klaipeda (Lithuania), Riga, Liepaja, Ventspils (Latvia), Tallinn (Estonia);
2. Transit through Kazakhstan and Russia via Belarus and Ukraine (Chop and Brest border crossings);
3. Transit through Kazakhstan and Russia to the Ukrainian port of Illichivsk, with access to the Black Sea;
4. Transit through Kazakhstan and Russia in an easterly direction through China to the Yellow Sea, as well as the ports of Nakhodka, Vladivostok;
5. Transit through Turkmenistan, Kazakhstan and Azerbaijan with access to the Black Sea (TRACECA corridor);
6. Transit through Turkmenistan and Kazakhstan to the Iranian port Bandar Abbas with access to the Persian Gulf;
7. The so-called "Transafgan Corridor" with the exit through Afghanistan to Iran's seaports Bandar Abbas and Chahbehar, as well as Pakistan-Gwadar on the Indian Ocean coast.

¹³<http://dlca.logcluster.org/display/public/DLCA/2.3+Uzbekistan+Road+Network;jsessionid=7DC99D9E5B99464F4B49B65C55C5CC33>



Uzbekistan shows its special interest in Afghanistan for a long time. In 2002, the government of Uzbekistan adopted resolutions on the opening of the Hayraton bridge on the Uzbek-Afghan border. In 2003, a tripartite agreement was signed between Uzbekistan, Iran and Afghanistan on the establishment of the International Trans-Afghan Transport Corridor. Separately it is worth noting that in 2009 Uzbekistan officially opened up fiber-optic communication with Afghanistan. And since 2010, after the commissioning of LEP-220 "Hayraton-Puli-Khumri-Kabul" in Afghanistan, they began to sell electricity from Uzbekistan. On the achieved, Uzbekistan does not intend to stop and plans to continue this railway to Herat, and further - to Iran. The railway will pass through the Afghan cities of Kunduz, Hulme and Naibabad. The project will be financed by CAREC, Uzbekistan's participation in corridor construction projects is very active. Despite the fact that the main vectors of Uzbekistan's transport and infrastructure policy differ little from the interests of the neighbors in the region that do not have access to the oceans (positioning themselves as a key link in the Silk Road, participating in the ITC, strengthening the transit potential, diversifying transport routes). It is still pragmatic to make fundamental decisions in the republic, based on the strength of the moment¹⁴.

Conclusion. In the last part of our work we studied railway and transport infrastructure of Uzbekistan. Moreover, we analyzed the quantities and qualities of railways, roadways and bridges concentrating on infrastructural changes in Uzbekistan's transport system for the period of 2010 and 2017. Uzbekistan has a great advantage - a position in the center of the Central Asian region, a developed network of railways and highways, and is still the only way for Afghanistan to expand into a wide-gauge railway network. Kazakhstan and Turkmenistan, by virtue of their economic potential and geographic location, including access to the Caspian, are the most transitory. Moreover, among the other Central Asian countries these countries have the most international transitory corridors, particularly, in Kazakhstan. Uzbekistan, however, has the most advanced railroad and transport system in Central Asia, has less regional and international transport corridors comparing to Turkmenistan and Kazakhstan. Therefore, having analyzed the above given parts, it can be suggested that Uzbekistan should be more integrated into the regional and international projects. To improve their economic condition, other Central Asian countries such as Tajikistan and Kyrgyzstan should solve their border problems peacefully.

References:

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On foreign economic activity of the Republic of Uzbekistan" May 26, 2000. No. 77-II.
2. Узбекская национальная автомагистраль: Новые возможности для бизнеса. Журнал «Экономическое обозрение», 2010 г., №7, стр.31.
3. Стратегия ЦАРЭС по транспорту и содействию торговле до 2020 года, URL: <http://www.adb.org/sites/default/files/carec-ttfs-2020-ru.pdf>.

¹⁴ Тураева М.О. Транспортная инфраструктура стран Центральной Азии в условиях современной регионализации: Доклад. – М.: Институт экономики РАН, 2014. – 62 с.



4. Тураева М.О. Транспортная инфраструктура стран Центральной Азии в условиях современной регионализации: Доклад. – М.: Институт экономики РАН, 2014. – 62 с.
5. <http://dlca.logcluster.org/display/public/DLCA/2.3+Uzbekistan+Road+Network;jsessionid=7DC99D9E5B99464F4B49B65C55C5CC33>
6. <http://russian.people.com.cn/n/2014/0711/c31518-8754481.html>.
7. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/03/07/bridges/>
8. <http://thediplomat.com/2016/01/can-china-fix-central-asias-soviet-rail-legacy/>
9. <https://www.gazeta.uz/ru/2016/06/22/tunnel>
10. <http://www.ikimap.com/map/uzbekistan-rail-proposal-would-circumvent-tajikistan>



БАНК ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ МАСАЛАЛАРИ

Мадаминов Исломжон Илхом ўғли

Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси

Телефон: (94) 540-11-11

islomjon.madaminov@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда банк фаолиятини тартибга солишнинг замонавий механизмлари таҳлил қилинган. Замонавий усуллардан фойдаланиш, банк фаолиятини мустаҳкамлаш ва молиявий барқарорликни таъминлашга қаратилган таклифлар тақдим этилган.

Калит сўзлар: банк фаолияти, тартибга солиш, рақамли технологиялар, молиявий барқарорлик, мониторинг, халқаро стандартлар

Банк фаолиятини тартибга солиш, молия тизимининг барқарорлигини таъминлаш ва иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда муҳим рол ўйнайди. Замонавий иқтисодиётда банклар фаолиятининг мувофиқлаштирилиши ва тартибга солиниши, молиявий барқарорликни таъминлаш, ишончни тиклаш ва ҳар қандай хавф-хатарларни камайтириш учун зарурдир.

Банк фаолиятини тартибга солишнинг замонавий механизмлари асосан қуйидаги омилларга таянган:

Халқаро стандартларга мувофиқлаштириш: Банк фаолиятини халқаро молиявий стандартларга мослаштириш, масалан, Базель стандартлари, молиявий барқарорликни таъминлаш ва фалокатлардан сақланишга ёрдам беради.

Рақамли технологияларни жорий этиш: Банклар учун рақамли технологияларни жорий этиш, уларнинг фаолиятини яхшилаш, молиявий хизматларни янада самарали қилиш имконини беради.

Молиявий мониторинг ва назорат: Банклар учун хавф-хатарларни баҳолаш, молиявий барқарорлик ва ижобий натижаларга эришиш учун мониторинг ва назорат механизмларини кучайтириш.

Ҳуқуқий тизим ва қонунчиликни такомиллаштириш: Банк фаолиятини тартибга солишда қонунчиликни мустаҳкамлаш ва банкларнинг ҳуқуқий асосини аниқ белгилаш зарур. Бу, ўз навбатида, банклар фаолиятидаги аномалий ҳолатлар ва хавф-хатарларни камайтиради.¹⁵

Банк фаолиятини замонавий тартибга солиш механизмларидан фойдаланиш кўплаб афзалликлар билан боғлиқ. Улар қуйидаги соҳаларда самара беришга хизмат қилади:

¹⁵ Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.



Барқарорлик ва ишончни ошириш: Банк фаолиятини тўғри тартибга солиш натижасида молиявий тизимда барқарорликка эришилади. Бу эса иқтисодий ишончни оширади ва сармояларни жалб қилишга ёрдам беради.

Рақобатбардошликни ошириш: Замонавий механизмлар банклар орасида рақобатни оширади, янги молиявий маҳсулотлар ва хизматларни жорий қилиш имконини беради. Банклар янги хизматлар билан бозорда ўз позициясини мустаҳкамлайди.

Молиявий хавф-хатарларни камайтириш: Банк фаолиятини тартибга солиш механизмлари молиявий хавф-хатарларни камайтиришга ёрдам беради. Молиявий мониторинг, риск-менежмент ва хавф-хатарларнинг аниқ баҳолаши банкларнинг фаолиятини барқарорлаштиради.

Инвестиция муҳитини яхшилаш: Инвестиция муҳитидаги ишончни ошириш замонавий механизмлар орқали олиб бориладиган тартибга солиш чоралари билан боғлиқ. Банклар ва молиявий муассасаларга амалга оширилаётган қонунчиликдаги ўзгаришлар сармояларни жалб қилишга хизмат қилади.¹⁶

Ўзбекистонда банк фаолиятини тартибга солиш механизми турли хил замонавий усуллар билан амалга оширилмоқда. Қуйидаги имкониятлар ва таклифлар мавжуд:

Банкларнинг халқаро стандартларга мувофиқлаштириш: Ўзбекистонда банкларни халқаро молиявий стандартлар билан ҳамоҳанглаштириш орқали уларнинг рақобатбардошлигини ошириш. Базель III стандартлари ва уларга асосланган капитални мустаҳкамлашнинг аҳамиятини ошириш.

Рақамли технологиялардан фойдаланиш: Банкларда рақамли технологияларни жорий қилиш, хусусан, интернет-банкнинг ва мобил банкнинг тизимларини кенгайтириш. Бу банклар фаолиятини соддалаштиради ва хизмат кўрсатишнинг самарадорлигини оширади.

Молиявий мониторингни ва назарни кучайтириш: Банкларда молиявий мониторинг тизимларини жорий қилиш, улар орқали хавф-хатарларни олдини олиш ва молиявий барқарорликни таъминлаш.

Қонунчиликни мустаҳкамлаш: Банкларнинг ишлаш механизмларини замонавийлаштириш ва қонунчиликни такомиллаштириш, банклардаги молиявий хато ва хато ишлашларини камайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.
2. Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.

¹⁶ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.



РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Мадаминов Исломжон Илхом ўғли

Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси

Телефон: (94) 540-11-11

islomjon.madaminov@mail.ru

Аннотация. Мазкур тезисда рақамли трансформация тушунчаси, унинг иқтисодий моҳияти ҳамда амалга ошириш масалалари ёритиб ўтилган. Шунингдек, рақамли технологиялар нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, балки ортиқча харажатларни ҳам камайтиради. Шу билан бирга, мамлакат ривожланишига тўсқинлик қилаётган энг оғир иллат – коррупция балосини йўқотишда ҳам катта роль ўйнайди.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, ахборот технологияси, ахборотлаштириш ва рақамлаштириш жараёни, телекоммуникация тармоқлари

Рақамли трансформация — бу компаниянинг бизнес жараёнларига янги технологияларни жорий этиш усули бўлиб, унда рақамли технологияларидан бизнес фаолиятини ўзгартириш ва яхшилаш учун фойдаланилади. Бунинг ҳисобига унинг миқёси кенгайиб, янада самарали ва даромадлироқ бўлади.

Бизнеснинг рақамли трансформацияси янги технологияларни қўллаш орқали мижозларга хизмат кўрсатиш сифатини оширишга қаратилган. Бироз олдин бизнес соҳасига ижтимоий тармоқларнинг жорий этилишини инқилоб деб аташ мумкин эди. Бугун эса бу етарли эмас бўлиб қолди. Компаниялар такомиллаштириш ва ривожланиш учун замонавий технологияларга муҳтож. Бизнесни юритишнинг анъанавий стратегияларидан рақамли бизнес стратегияларига инқилобий ўтиш туфайли компания рақобатчиларга нисбатан сезиларли афзалликларга эга бўлади. Бироқ, қатъий ҳаракат қилиш зарур.

Янги жараёнларнинг баъзилари тез ва самарали ишга туширилади, бошқалари эса узоқ муддатли ўзгаришларга олиб келиши ва ҳатто қисқа масофаларда бузилишларни келтириб чиқариши мумкин. Мисол учун, баъзи мижозлар инновацияларни қабул қилишни истамасликлари сабабли рад этишади. Бироқ рақамли трансформацияга тўғри ёндашиш ва самарали воситаларни жорий этиш компанияни «рақамлаштириш» ва унинг имкониятларини кенгайтиришга ёрдам беради. Бу шунчаки маълумотни рақамлаштириш эмас, бу компанияни рақамли маконда тарғиб қилишга қаратилган тадбирларнинг катта тўпламидир. Сиз турли тажрибаларга тайёр бўлишингиз, эскирган бизнес жараёнларидан воз кечишингиз ва бизнесингизни кенгайтириш учун замонавий технологиялардан фойдаланишингиз керак.



Рақамли трансформация жуда катта суръатларда амалга оширилмоқда. Бир неча ўн йиллар олдин бизнесни фақат маҳаллий даражада тарғиб қилиш мумкин эди. Газеталардаги маҳаллий эълонлар, устунлардаги эълонлар ва ташриф қоғозларини тарқатиш каби. Кейин веб-сайтлар пайдо бўлди ва компаниялар аста-секин, бир вақтнинг ўзида телевизорда реклама бериш билан бирга рақамли маконга кира бошладилар. Бугунги кунда рақамли трансформация янги тўлқинни бошдан кечирмоқда.¹⁷

Сунъий интеллект фаол ривожланмоқда, машинани ўрганиш амалга оширилмоқда. Шунини таъкидлаш керакки, ҳар қандай ўзгаришлар муайян қийинчиликлар билан боғлиқ. Кўпгина мижозлар янги технологияларни қабул қилишга тайёр эмас. «Эскича фикрлайдиганлар» чат бот орқали мулоқот қилишдан кўра, компанияга кўнғироқ қилишни афзал кўришади.

Сунъий интеллект ва машинани ўргатиш соҳасидаги ечимлар. Сунъий интеллект тобора оммалашиб бормоқда, чунки бу сизнинг шахсий маълумотларингиз асосида доимий равишда ўрганадиган машинага қарор қабул қилишни ишониб топшириш имкониятидир. Ўқитишнинг самарадорлиги ва қарор қабул қилишнинг тўғрилиги маълумотлар миқдорига боғлиқ: маълумот қанчалик кўп бўлса, алгоритм учун аниқ ва тўғри хулосалар чиқариш осонроқ бўлади.

Буюмлар Интернети. Керакли жойларга жойлаштирилган қурилмалардан фойдаланиш: одамда, асбоб-ускуналар ёки транспорт воситаларида, керакли маълумотларни олиш, прогнозлар қилиш ва қарорлар қабул қилиш. Масалан, тиббиётда бу технология беморларнинг аҳволини кузатиш ва ташхис қўйиш, логистикада — машиналарнинг ҳолатини кузатиш, қишлоқ хўжалигида — обҳаво ва тупроқ ҳолати ҳақида маълумот олиш учун қўлланилади.¹⁸

Робототехника ва жараёнларни автоматлаштириш — роботлар узок вақтдан бери одамлар ўрнига кўплаб такрорланадиган оддий жараёнларни амалга ошириб келмоқда. Уларни корхонангиз ишига татбиқ этиш унинг самарадорлигини баъзан, ҳатто ўнлаб марта ошириши мумкин. Албатта, бундай трансформация роботларни бошқариш учун махсус дастурий таъминотни ишлаб чиқишни ҳам назарда тутди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

3. Рақамли трансформация: мазмуни, моҳияти, шарт-шароитлари ва истиқболли йўналишлари Мирсоатов А. Қ. Тошкент, Ўзбекистон.

4. Sousa M. J. and Rocha A., "Digital learning: Developing skills for digital transformation of organizations," *Futur. Gener. Comput. Syst.*, 2

¹⁷ Рақамли трансформация: мазмуни, моҳияти, шарт-шароитлари ва истиқболли йўналишлари Мирсоатов А. Қ. Тошкент, Ўзбекистон.

¹⁸ Sousa M. J. and Rocha A., "Digital learning: Developing skills for digital transformation of organizations," *Futur. Gener. Comput. Syst.*, 2



МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИ ТАҚДИМ ЭТИШ ВА ҲИСОБ СИЁСАТИ

Рахмонова Феруза Мусакуловна

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат
Архитектура қурилиш университети
“Бизнесни бошқариш” кафедраси В.б дотсенти
feruzaraxmonova1976@gmail.com

Аннотация: Ўзбекистон иқтисодиётига инвестиция жалб қилишда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этишнинг зарурияти ва аҳамияти, халқаро стандартларга ҳисоботларни трансформация қилиш масалалари ўрганилиб, халқаро стандартларга ўтиш жараёни тадқиқ қилинган. Инвестиция муҳити яратишда ҳисоботлар шаффофлигини ошириш ва инвестиция жалб қилиш имкониятлари бўйича тегишли хулосалар берилган.

Калит сўзлар: молиявий ҳисоботлар, халқаро стандарт, инвестиция муҳити, молиявий ҳисоботларни трансформацияси, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот, фойда ва зарарлар ҳамда умумлашган даромадлар.

Ўзбекистон Республикасини жаҳон ҳамжамиятига интеграцияси жараёнида бухгалтерия ҳисобининг халқаро тизимига мос келадиган ҳисоб тизими асосида ташкил этилиши натижасида молиявий ҳисоботларни кўрсаткичлари ва уларни тақдим этиш тизимида ҳам сезиларли даражада ўзгаришлар юзага келди.

Ҳозирда жаҳон тажрибасидан фойдаланган ҳолда сифат жиҳатидан янги бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисоботларни тақдим этиш тизими шакллантирилиб, унда инвестицион муҳит учун қулай шароит яратадиган замонавий бухгалтерия ҳисоби тизимини қўлланиши учун имконият яратилмоқда. Акциядорлик жамиятларининг операцияларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш ҳам халқаро стандартларга жавоб берадиган тарзда олиб бориш учун молиявий ҳисоботни халқаро стандартлари асосида ташкил этиш, ҳисоб тизимини халқаро амалиётда қабул қилинган тизимга мослаш, бухгалтерия ҳисобининг асоси бўлган счётлар режаси ишлаб чиқилиб амалиётга тадбиқ этилиши ҳисоб тизимини халқаро амалиётга мос равишда юритиш имкониятини яратади.

Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига қўшилишига, халқаро ташкилотлар фаолиятидаги иштирокини кенгайтириши бухгалтерия ҳисоби миллий стандартларининг жаҳон амалиётида қабул қилинган услубий тамойиллар билан бирлигини, миллий кўрсаткичларни хорижда қўлланилаётган ана шундай кўрсаткичлар билан мувофиқлашувини талаб этмоқда. Иқтисодиётга инвестиция жалб этиш шароитида мулкчилик шакллари турли хил бўлган акциядорлик жамиятларининг фаолиятини ҳисоби, уларнинг фаолиятини назорат ва таҳлил қилиш ва маъмурият томонидан



тезкор қарорларнинг қабул қилинишига асос бўладиган зарур маълумотларни асосан бухгалтерия ҳисоби тақдим этади.

Бугунги кунда келиб, ривожланган мамлакатларда инвестиция фаолиятини ривожлантириш жараёнида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий қилиниши асосий ролни бажармоқда. Шунинг учун ҳам сўнгги йилларда Ўзбекистонда мазкур тизимни ривожлантириш ва уларнинг капиталлашув даражасини ошириш бўйича бири-биридан муҳим бўлган қарорлар, фармонлар қабул қилинмоқда, чора-тадбирлар режалари ишлаб чиқилмоқда.

Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлари асосида молиявий ҳисоботларни тузиш жараёнида асосий масала унга ўтиш йўллари аниқлаш асосида акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини МҲХСлари асосида трансформация қилиш масаласи муҳим ҳисобланади. Чунки Ўзбекистон Республикасида айниқса молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартига ўтиш бўйича кейинги йилларда, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4611 сон 2020йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарорида шундай таъкидлаб ўтилган:

1. Белгилансинки, акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар:

2021 йил 1январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди, қонун ҳужжатларида МҲХСга ўтишнинг эртароқ муддатлари назарда тутилган юридик шахслар бундан мустасно;

Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ молиявий ҳисоботни ихтиёрий равишда МҲХСга мувофиқ тайёрлайдиган тадбиркорлик субъектлари бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари бўйича молиявий ҳисобот тақдим этишдан озод этилади[2]. Демак акциядорлик жамиятлари 2021 йил 1январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва молиявий ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида тақдим этади.

Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (1-сонли БҲМС) «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш ва ҳисоб сиёсати»ни тасдиқлаш ҳақида янги низом эса

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 6 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3544

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги [Қонунига](#) мувофиқ буюрилади:

1. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (1-сонли БҲМС) «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш ва ҳисоб сиёсати» [1-иловага](#) мувофиқ тасдиқлансин.



2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар [2-иловага](#) мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур буйруқ 2025 йил 1 январдан эътиборан кучга кирди.

Шу сабабли акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга ўтказиш бўйича тегишли ишларни амалга ошириш мақсадида трансформация масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Шу жумладан МҲХСларни биринчи марта қўллашда ёки миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни трансформация қилишдан олдин муҳит, шарт-шароит ва маълум тайёргарлик ишлари зарурияти келиб чиқади. Шу сабабли ушбу масалада иқтисодий адабиётларда турлича фикрлар мавжудлиги ушбу соҳани ҳали яхши ўрганилмаганлигини кўрсатади.

Ушбу масалада Ўзбекистондаги акциядорлик жамиятларини жаҳон иқтисодий тизимида интеграциялашувида молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини ўрнини белгилашда муҳим ҳисобланади. Шу сабабли чет элда акциядорлик жамиятларини МҲХС ўтиш жараёнини очиқ бериш масаласида проф. В.Ф.Палий томонидан шундай фикр билдирилган: “Халқаро интеграциялашув жараёнида иқтисодий ислохотларни амалга ошириш ва молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига ўтиши учун шарт-шароит яратилиши муҳим ҳисобланди. Шу сабабли бу масалада йирик бизнеснинг жаҳон иқтисодий тизимида интеграциялашуви натижасида молиявий ҳисоботларни бизнес вакиллари тушунадиган шаклда тақдим этиш муҳим масала ҳисобланади. Ушбу масалада молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ҳисоботларни трансформация қилиш ва уни халқаро талабларга мослаштиришни зарурияти вужудга келади[3]. Шундай қилиб, Россияда акциядорлик жамиятларининг молиявий ҳисоботларини халқаро талабларга мослаштиришда албатта молиявий ҳисоботларини трансформация асосида тақдим этиш талаби қўйилмоқда ва натижада компанияларнинг фаолиятини халқаро стандартлар асосида юритиш мажбурлигини тақоза қилади.

Ўзбекистонни жаҳонга интеграциясини ривожланиши ва молиявий ҳисоботларни умумқабул қилинган шаклда тақдим этиш жараёнида проф. А.К.Ибрагимов ва Н.Ризаевларнинг фикрича “Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ташкил этиш ва молиявий ҳисоботларни тузиш жаҳон интеграциясига янада кенгроқ кириб бориш имкониятини беради. Натижада Республикамизда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш масаласи ҳисоб ва ҳисоботни модернизация қилишнинг бош масаласи ҳисобланади”[4]. Юқорида билдирилган фикрлардан умумлаштириш асосида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботни тузишга доир талабларни бажариш ва молиявий ҳисоботни тузишга доир вўйилган талабларни бажаришни белгилаб беради. Ушбу масала Ўзбекистондаги акциядорлик жамиятларининг акцияларини жаҳон фонд биржаларига жойлаштирилиши учун бериладиган ахборот ва молиявий



ҳисоботларни халқаро талабларга мослаб тақдим этишнинг заруриятини келтириб чиқаради[7].

Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда жойлаштирилиши лозим бўлган ахборотларни молиявий ҳолат таҳлили учун қулай бўлган тартибда жойлаштирилиши керак. Бухгалтерия моддаларини жойлаштиришда уларнинг ликвидлик даражасига эътибор бериш керак. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда моддаларни жойлаштиришда битта қоидага амал қилинади: баланс моддаларини жойлаштиришда уларнинг ликвидлик даражаси ҳисобга олинади, яъни тез ликвидли активлардан қийин ликвидли активларга, худди шунингдек, қисқа муддатли мажбуриятлардан узоқ муддатли мажбуриятларга ўтиш тартибда жойлаштирилади[8]. Шунда жорий активларни жорий мажбуриятлар билан солиштириш имконияти туғилади. Бу эса баланснинг ликвидлигини аниқлашда ахборот фойдаланувчиларга қўлай имконият туғдиради. Бугунги кунда молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботнинг халқаро стандартларга мувофиқ ҳолатда янги таркибини (янги шаклини) ишлаб чиқишга зарурият бор.

Бизнинг фикримизча, акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар жорий этилиши инвестицион жозибadorликни янада оширади ва қуйидаги омилларни алоҳида таъкидлаш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз:

1) Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тизими имкон қадар МҲХСларига уйғун бўлишини таъминлашимиз керак. Чунки улар ўртада тафовут мавжудлиги белгиланган меъёрдан кўпроқ бўлса қўллаш жараёнини анча қийинлаштиради ва молиявий ҳисоботни инвесторлар тушуниши қийин бўлади ва биз кутган натижани бермайди;

2) Ўзбекистон Республикасидаги акциядорлик жамиятларининг бош бухгалтерларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида молиявий ҳисоботларни тайёрлаганлиги учун моддий рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш, уларнинг этика қоидаларига риоя қилишини таъминлаш, зарур бўлса трансформация жараёнини ўқитиш ишларини ташкил қилиш ҳисоботларни ишончилигини оширади;

3) Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асоида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг асоси бўлган ҳисоб сиёсатини мукаммаллаштириш, уни молиявий ҳисобот тамойилларига тўлиқ риоя қилган ҳолда тузилиши ва банк тизимида халқаро стандартлар талабларига мувофиқ молиявий ҳисоботни тузиш инвестиция жалб этишнинг асосий омил бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Қаракатлар стратегияси” дастури. //Lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4611 сон 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори.//Lex.uz/



3. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. М.; Учебник, Издательства “ИНФРА-М” 2007., -512с. С.18.
4. Ибрагимов А.К., Ризаев Н.Қ. ва бошқалар. Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Т.: Иқтисод-молия, 2020. 560б.
5. Генералова Н.В. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник для вузов. / О.А. Агеева, А.Л. Ребизова. – М.: Юрайт, 2013. – 447.
6. Ibragimov A.K. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. /A.K.Ibragimov, M.D.Marpatov, N.K.Rizaev. T.: Moliya, 2016. 370 b.
7. Ibragimova I.R., Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
8. Ibragimova I.R. Ahatov O. Improvement of financial analysis in banks on the basis of international standards.// The 1 st International scientific and practical conference “Science and ducation: problems, prospects and innovations” (October 7-9, 2020) CPN Publishing Group, Kyoto, Japan. 2020. 521 P-



ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Солиева Элнозахон Жахонгир қизи

Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси

Телефон: (94) 554-20-40

elnoza.solieva@gmail.com

Аннотация. Мазкур тезисда тижорат банкларида активларни бошқариш самарадорлиги кўрсаткичларини ҳисоблаш услубиётига тўхталиб ўтилган. Шунингдек, муаллиф томонидан активларни бошқариш самарадорлигини янада ошириш бўйича олиб борилган илмий тадқиқот ишлари билан ҳам таништириб ўтилган.

Калит сўзлар: банк активлари, банк пасивлари, узоқ муддатли активлар, қисқа муддатли активлар, активлар рентабеллиги, маржа коэффициенти, операцион маржа

Тижорат банклари фаолиятининг пировард мақсади олинаётган фойдани максималлаштиришдан иборат бўлиб, ушбу мақсадга эришиш банк активлари портфелининг сифат даражасини таъминлашни тақозо этади. Мазкур жараёнда банк активларининг сифат кўрсаткичларига эътиборни қаратиш, банк активларининг даромадлилиги ва ликвидлилиги ўртасидаги оқилона нисбатни таъминлаш муҳим амалий аҳамият касб этади. Ушбу масаланинг нозик жиҳати шундаки, активларнинг даромадлиги ва ликвидлилиги ўзаро тесқари мазмундаги тушунчалардир. Яъни, банк активларининг даромадлилик даражаси қанчалик юқори бўлса, уларнинг ликвидлилик даражаси шунчалик паст бўлади ва аксинча. Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активлари портфелининг сифатини ошириш борасида қатор муаммоларнинг мавжудлиги ва уларни ҳал қилишнинг зарурлиги ушбу магистрлик диссертацияси мавзусининг долзарблигини белгилайди.

Иқтисодий адабиётларда банк активларини шакллантириш ва сифатини оширишнинг назарий-концептуал асослари чуқур тадқиқ қилинган.

Иқтисодчи олим В.Усоскин ўзининг «Современный коммерческий банк: управление и операции» номли монографиясида тижорат банклари активларининг асосий турлари бўлган кредитлар ва кассали активларнинг сифатини ошириш масаласига алоҳида эътибор берган. В.Усоскин кредит портфелининг сифатини ошириш мақсадида мижозларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолаш тизимини такомиллаштиришни, кредит портфелини шакллантиришда диверсификация принципига қаттиқ риоя этишни таклиф қилади.¹⁹

¹⁹Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.



Тижорат банклари активларининг сифатини ошириш масаласининг алоҳида назарий ва амалий жиҳатлари ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан Б.Бердияров²⁰, У.Розукуловларнинг илмий изланишларида²¹ ўз ифодасини топган. Масалан, Б.Бердияров ўзининг номзодлик диссертациясида активларнинг сифати улардан олинган даромадларнинг барқарор даражасини таъминлашда ўз ифодасини топади деб ҳисоблайди.

Тижорат банк харажатларини оптималлаштириш масаласида қуйидагиларга эътиборни қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз:

- тижорат банклари учун бошқа банкдан олинган кредитлар ва жисмоний ҳамда юридик шахсларнинг омонатлари юқори фоизли харажатлар бўлиб ҳисобланади. Шу ўринда жисмоний шахсларнинг талаб қилиб олингунча ва юридик шахсларнинг ҳисобрақамларидаги пул маблағлари энг арзон харажатлар бўлиб ҳисобланади. Мажбуриятлар таркибида талаб қилиб олингунча омонатлар салмоғининг оширилиши фоизли харажатлар ҳажми ва салмоғининг камайишига олиб келади ва банк фойдасининг ошишига хизмат қилади;

- операцион харажатлар таркибида юқори салмоққа эга бўлган иш ҳақи харажатларини оптималлаштириш чоралари кўриб борилиши зарур.

Юқоридаги таклиф иш ҳақи харажатларини оптималлаштиришнинг мақбул ечими сифатида қаралиши мумкин, бироқ мазкур амаллар банкнинг умумий фаолиятига ва самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмаслиги лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

5. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.

6. Бердияров Б.Т. Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлиги. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2002. – 19 б.

7. Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.

²⁰ Бердияров Б.Т. Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлиги. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2002. – 19 б.

²¹ Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.



SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASINI O'RNI

Otaxonova D.M.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo korxonalarining jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini o'rni, ahamiyati va o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Savdo, savdo korxonasi, jozibadorlik, marketing, marketing strategiyasi.

Bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida savdo korxonalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning to'g'ri yo'naltirilgan marketing strategiyasiga bog'liq. Aslida, marketing strategiyasi - mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish, iste'molchilar e'tiborini jalb qilish va ularning talabini qondirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Savdo korxonalari uchun samarali marketing strategiyasi mahsulotni targ'ib qilishni hamda iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganishni, raqobatchilar tahlilini, to'g'ri narx belgilash, savdo kanallarini tanlash va kommunikatsiya uslublarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shu bois, savdo korxonalarining jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasining muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir korxona o'z mahsuloti yoki xizmatini bozorda muvaffaqiyatli sotish, xaridorlar e'tiborini jalb qilish hamda ularning ehtiyojlarini qondirish orqali raqobatchilardan ajralib turishga intiladi. Bunday maqsadga erishishda puxta o'ylangan marketing strategiyasi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, marketing strategiyasi firma qanday raqobatlashayotganini aniqlashni belgilaydi [1].

Marketing strategiyasi korxonaning bozordagi o'rnini aniqlash, maqsadli auditoriyani belgilash, to'g'ri narx siyosatini yuritish, samarali reklama va savdo kanallarini tanlash, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yish uchun qo'llaniladi. Marketing strategiyasini takomillashtirish uchun zarur taktikani ham tanlash zarur [2]. Sababi strategiya bilan taktika o'rtasidagi chegara doimo aniq bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi raqamli davrda onlayn marketing, ijtimoiy tarmoqlar, brending va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar korxona jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu holatda marketing strategiyasi - kompaniya o'z mahsulotini sotish uchun foydalanadigan batafsil yo'l xaritasidir [3].

Marketing strategiyasi yangi mijozlarni jalb qilishga, ketganlarni qaytarishga va ularning ehtiyojlarini tushunish orqali mavjud mijozlarning sodiqligini mustahkamlashga imkon beradi. Strategiyaga asoslangan maqsadli harakatlar savdo hajmining oshishiga va natijada kompaniya daromadi va foydasining oshishiga olib keladi. Bozorni o'rganish va tahlil qilish esa kompaniyaning bozor ulushini oshirib,



yangi bozor joylarini aniqlash va egallashga yordam beradi. Ushbu strategiya kompaniyaning kuchli tomonlarini tushunish va undan foydalanishga imkon berib, uni raqobatbardoshligini oshiradi. Hamda maqsadli reklama tadbiri va aniq brend imidjini yaratish uning tan olinishi, ishonchini oshiradi va bozordagi obro'sini oshiradi. Shunga asosan, strategiyaga ega bo'lish biznesga talab, taklif va bozor tendensiyalaridagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishga imkon beradi. Bu strategiya barcha marketing sa'y-harakatlarini yagona rejaga birlashtirib, kompaniya resurslarini muhim jarayonlar va uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltiradi.

To'g'ri tanlangan marketing strategiyasi orqali korxona o'zining jozibadorligini oshiradi, mijozlar bazasini kengaytiradi va brendga sodiqlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar: raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot, mijozlar bilan interaktiv aloqalar, ya'ni savdo samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, marketing strategiyasi savdo korxonalarining bozordagi o'rnini mustahkamlash, barqaror rivojlanish va daromadni ko'paytirishda hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Shularga asosan, savdo korxonasi jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasi quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Savdo korxonasining jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasi tarkibiy qismlari

Marketing strategiyasi unsuri	Jozibadorlikka ta'siri
Bozorni tahlil qilish	Xaridor ehtiyojlarini aniqlash va to'g'ri yo'nalish tanlash imkonini beradi
Maqsadli auditoriyani belgilash	To'g'ri mijozlar guruhiga yo'naltirish orqali samaradorlik oshadi
Narx siyosati	Raqobatbardosh narx mijozlarni jalb qiladi
Reklama va targ'ibot	Brend tanilishi va mijoz e'tibori oshadi
Savdo kanallari	Mahsulot yoki sifatli xizmatga oson kirish imkonini beradi
Mijozlar bilan aloqa	Sodiqlik va qayta xarid qilish ehtimoli ortadi

Marketing strategiyasi biznesni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, foydani oshirish, bozor ulushini kengaytirish, mijozlarni jalb qilish va ushlab turish kabi biznes maqsadlariga erishish uchun harakat rejasini aks ettiradi. Bu esa raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydi, brend xabardorligi va iste'molchilar ishonchini oshiradi va bozor tendentsiyalari va mijozlar ehtiyojlariga moslashishga imkon beradi. Bunday strategiyasiz marketing xaotik bo'lib qoladi hamda biznes yo'nalishi va bozorda samarali raqobat qilish qobiliyatini yo'qotadi.

Xulosa shuki, savdo korxonalari marketing strategiyasini ishlab chiqishda iste'molchilarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishi, bozordagi o'zgarishlarga tezkor moslasha olishi va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish zarur bo'ladi. Faqat shundagina korxona bozorda o'z mavqeini mustahkamlab qoladi hamda yangi mijozlarni jalb etish va foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болотова А.А., Карпунина Е.К. Роль и место маркетинговой стратегии продвижения товара в системе развития современного предприятия. // Социально-экономические явления и процессы, №4 (050), 2013. - с. 36.
2. Narziyev J.P., Ziyadullayev K,Sh., Baxtiyorov U.B. Korxonalarda marketing strategiyasini shakilantirishning xususiyatlari. // "Innovations in science and technologies" ilmiy-elektron jurnali, Volume1, №1, February, 2024. - 22 b.
3. <https://teamly.ru/blog/marketingovaya-strategiya-celi-zadachi>



MINTAQA SANOAT KORXONALARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH

Raxmonova Feruza Musakulovna

SamDAQU “Biznesni boshqarish” kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanish zaruriyati, o‘ziga xos xususiyatlari va ularni amalga oshirish masalalari ilgari suriladi.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость использования маркетинговых стратегий для повышения привлекательности региональных промышленных предприятий, их особенности и проблемы реализации.

Abstract. This article presents the need for using marketing strategies to increase the attractiveness of regional industrial enterprises, their specific features and issues of their implementation.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, sanoat, sanoat korxonalari, jozibadorlik, marketing, marketing strategiyasi.

Ключевые слова: Регион, промышленность, промышленные предприятия, привлекательность, маркетинг, маркетинговая стратегия.

Key words. Region, industry, industrial enterprises, attractiveness, marketing, marketing strategy.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda har bir mamlakat va mintaqalar o‘zining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga, xususan, sanoat korxonalarini yanada rivojlantirish va investitsion jozibadorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Buning uchun marketing faoliyatini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada jahonning ko‘plab mashhur brendga ega kompaniyalari, marketing natijasida aniqlangan bozor ehtiyojidagi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda qator omillar asosida bozorda o‘z ulushlarini saqlab qoladilar [1]. Shu boisdan ham, mintaqadagi sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri maqsadli va samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi. Marketing strategiyasining asosiy maqsadi korxona faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi. Ya’ni, bu borada korxonani takomillashtirishning asosiy va yordamchi omillarini hisobga olgan holda uning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun marketing strategiyasi taklif qilinadi [2].

Marketing strategiyasini amalga oshirish uchun marketing dasturi ham tuzilishi kerak. Jumladan, makromintaqadagi o‘z mavqeini mustahkamlash uchun mintaqaga alohida ajralib turishga imkon beradigan aniq rivojlanish strategiyasi va mintaqaning zamonaviy qiyofasini tarqatishga qaratilgan adekvat mintaqaviy marketing dasturi zarur [3]. Shularga asosan, mintaqalardagi sanoat korxonalari mahalliy aholi



bandligini ta'minlaydi hamda tashqi bozorlarga eksport hajmini oshirish, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va innovatsiyalarni joriy etishda muhim o'rin tutadi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina mintaqaviy sanoat korxonalari bozorda raqobatbardosh bo'lmaslik, mahsulot turlarining kamligi, targ'ibot va reklama ishlarining sustligi, investitsiyalarni jalb etishdagi muammolar va mijozlar ehtiyojini aniqlashdagi yetishmovchiliklar kabi qator muammolarga duch keladilar. Mazkur muammolarni bartaraf etishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanish muqsadga muvofiq.

Darhaqiqat, marketing strategiyasi korxonaning bozorda o'z o'rnini topish, mijozlar ehtiyojini qondirish va daromadli faoliyat yuritishga qaratilgan kompleks yondashuv bo'lib hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- maqsadli bozorni aniqlash va segmentlash;
- raqobatchilar tahlili va farqli afzalliklarni belgilash;
- mahsulot va xizmatlarning pozitsiyalash strategiyasini shakllantirish;
- kommunikatsiya kanallari va reklama faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yish.

Shuningdek, sanoat korxonalarida mazkur strategiyalarni qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- mahsulot sotuvi va daromadlar oshadi;
- brending va ishonch darajasi o'sadi;
- investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengayadi;
- yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari yaratiladi.

Yuqoridagi jihatlarga asosan, marketing strategiyalarini samarali joriy etish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish muqsadga muvofiq:

- bozorni o'rganish va tahlil qilish: Har bir hudud uchun alohida tarzda iste'molchi talabini aniqlash, raqobat muhitini baholash va imkoniyatlarni belgilash;
- mahalliy brendlarni rivojlantirish: Sanoat mahsulotlarini mahalliy va xalqaro miqyosda tanitish uchun brending strategiyalarini ishlab chiqish;
- raqamlashtirish va onlayn marketing: Raqamli platformalar orqali mahsulotni keng auditoriyaga yetkazish, elektron tijorat va SMM kanallaridan foydalanish;
- investorlar uchun marketing: Mintaqadagi investitsiya muhitini targ'ib qilish va investitsion loyihalarni marketinglashtirish orqali sarmoyadorlarni jalb etish;
- innovatsion yondashuvlar: Yangi texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulot sifatini oshirish va bozordagi talabga moslashuvchanlikni ta'minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqa sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanishni yanada yaxshilash uchun quyidagi takliflar zarur, deb hisoblaymiz:

- mintaqaviy sanoat korxonalari marketing strategiyalarini faqat sotuvni ko'paytirish vositasi emas, ya'ni umumiy biznes modelining asosiy qismi sifatida ko'rishi zarur;
- har bir korxona o'z segmenti, maqsadli auditoriyasi va marketing miks (4P: mahsulot, narx, joylashuv va targ'ibot) parametrlarini aniq belgilashi kerak;



- davlat va mahalliy hokimiyat organlari ushbu jarayonda infratuzilmaviy va axborot yordamini kuchaytirishi lozim;
- sanoat klasterlarini rivojlantirish orqali mahsulot targ'ibotini markazlashtirish va samarali boshqarish lozim;
- xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, mahalliy shart-sharoitga moslashgan marketing yechimlari ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa shuki, **marketing strategiyasi** korxonaning mahsulot yoki xizmatlarini maqsadli bozorlarga qanday usulda va qanday yondashuvlar bilan taqdim etishini belgilab beruvchi uzoq muddatli reja va harakatlar majmuasini belgilaydi. Ushbu marketing strategiyasini to'g'ri yo'naltirish va tizimli amalga oshirish orqali mintaqadagi sanoat korxonalari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda o'z raqobatbardoshligini oshirishi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishi mumkin. Ushbu strategiyani to'g'ri ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish orqali har qanday mintaqadagi sanoat korxonasi o'z jozibadorligini oshirib, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qiziqarli bo'lishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojimatov I. Sanoat korxonalari marketing faoliyatining samaradorligini oshirishda hrm tizimini qo'llanilishining ahamiyati. // Zamonaviy fanlarda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi , 2 (12), 2023. - 28-31 b.
2. Виктория В.Д., Павел С.Д. Маркетинговая стратегия повышения конкурентоспособности предприятий. // Вестник Воронежского государственного аграрного университета, 2016, №2 (49). - с. 180.
3. Газалиева Н.И. Региональный маркетинг. Учебное пособие. - Махачкала, 2016. - с. 51.



IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Ro'zmetov K.

Urganch Ranch-texnologiya
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy sohani rivojlantirish omillarining mohiyati va muhim yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy soha, soha, omil, ta'sir, **ijtimoiy-iqtisodiy omillar.**

Ma'lumki, ijtimoiy soha aholining turli ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish funksiyasini bajaradigan tarmoqlar va tashkilotlar majmuidir. Ijtimoiy soha iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi va qisman ishlab chiqarishning moddiy sohasi bilan bog'liq turli tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu soha o'z afzalliklarini xizmatlar shaklida taqdim etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohada mehnat resurslarining 50 foizdan ortig'i ishlaydi. Bu har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Chunki, u sezilarli multiplikativ ta'sirga ega hisoblanadi. Buning natijasida uning faoliyati iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi.

Ijtimoiy soha nisbatan mustaqil soha bo'lib, jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarining rivojiga ta'sir qiladi. Ushbu soha o'ziga xos xususiyatlari, uning mohiyati, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning ichki tabiati va o'zaro ta'sir tabiati bilan belgilanadi. Muayyan hudud doirasida ijtimoiy soha tarmoqlari yagona ijtimoiy majmua bo'lib, uning faoliyati inson salohiyatini rivojlantirishga imkon beradigan mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharti bo'lib ham hisoblanadi. Mazkur soha holati mamlakatda sezilarli mintaqaviy farqlarga ega bo'lgan aholining hayot sifatini aks ettiradi.

Asosan, ijtimoiy sohaga atrof-muhit holati ta'sir ko'rsatadi. Biroq, uning o'zaro bog'liqligi va ta'siri doimiy va tasodifiy bo'lishi mumkin. Zarur va tasodifiy ta'sirlarning o'zaro bog'lanishi ularning to'liq namoyon bo'lish shaklini aks ettiradi. Bu esa ijtimoiy sohani rivojlantirish omillari bilan belgilanadi. Ushbu omillar ijtimoiy sohaning shakllanishi va rivojlanishini aks ettiradi hamda sohaning ijtimoiy-demografik, milliy-etnik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'zaro ta'sirini anglatadi. Shundan kelib chiqib, ular orasida mintaqaviy ijtimoiy majmuani hududiy tashkil etilishining muhim xususiyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan demografik, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar alohida qismlarga ajratiladi.

Eng asosiysi, ushbu omillar ijtimoiy-iqtisodiy omillar tarkibida bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar mintaqa ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi [1]. Ushbu omillar sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tomonidan yaratiladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi, transport tizimining ishlashi, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga nisbatan investitsiyalar, aholi



turmush darajasi, bandlik darajasi va demografik yuk ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bu esa hududning budjet imkoniyatlari va pul oqimlari hajmi, jumladan ijtimoiy ehtiyojlarni belgilaydi.

Ijtimoiy sohaga siyosiy va madaniy omillar ham shunday ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi harakatga ijtimoiy sohaning o'z-o'zini harakatini belgilovchi omillar, shuningdek, ushbu o'z-o'zini harakatga asoslangan qarama-qarshiliklarni aniqlash yordam beradi. Bu borada **ijtimoiy sohani joylashtirish va yanada rivojlantirish imkoniyatlarini belgilaydigan moddiy-texnik omillar** miqdoriy va sifat jihatidan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Biroq, ijtimoiy sohadagi islohotlar tarkibida investitsiyalar hajmining pasayishi moddiy bazasining pasayishi va asosiy vositalarning eskirishiga olib keladi.

Shuningdek, ijtimoiy rivojlanishga quyidagi ichki omillar ta'sir ko'rsatadi: siyosiy, ijtimoiy-madaniy, davlat va tashqi muhitning o'zgarishi, aholining demografik, iqtisodiy, ijtimoiy kayfiyati, aholining ijtimoiy ta'minlanishi va aholining moddiy farovonlik darajasi [2]. Ushbu omillar ijtimoiy taraqqiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar tarkibiga esa aholining ijtimoiy kayfiyati, aholining iste'mol qobiliyati va sabr-toqat darajasi kabi ko'rsatkichlar kiradi. Tashqi omillar ta'sirlar shaklida ijtimoiy sohaning ichki xususiyatlari doirasida ichki qarama-qarshiliklar orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy rivojlanish omillari esa turli unsurlardan iborat bo'lgan quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- mamlakat va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish xususiyatlari, korxonalarda mulkchilik tabiati, turi va taqsimlash munosabatlari bilan bog'liq iqtisodiy omillar;

- ijtimoiy siyosatning ijtimoiy soha salohiyatini oshirish, aholining ijtimoiy takror ishlab chiqarilishi sohasidagi huquqiy kafolatlarini amalga oshirish, aholining ba'zi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga yordam berish hamda uning rivojlanishiga ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mohiyati va ta'sirini tavsiflovchi siyosiy omillar;

- ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi shartli qonunchilik ma'yorlari va huquqiy munosabatlar, aholining huquqiy ongi darajasini ifodalovchi huquqiy omillar;

- jamiyatda hukmronlik qiladigan axloqiy va madaniy-ma'naviy qadriyatlar, me'yorlar va urf-odatlar tizimi hamda ularning mintaqaviy xususiyatlarining ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ta'sirini belgilaydigan madaniy omillar;

- aholining tabiiy yashash muhitining xususiyatlari va mintaqadagi ekologik vaziyatni hisobga olib, aholi standartlari va turmush tarziga ta'sir qiladigan tabiiy-iqlimiy omillar;

- ijtimoiy guruhlar bo'yicha aholi soni va ularning jinsi va yosh tarkibi, tug'ilish va o'lim, migratsiya, bandlik va kasbiy malaka tuzilishini o'z ichiga olgan ijtimoiy-demografik omillar;

- ijtimoiy munosabatlarda kayfiyat, his-tuyg'ular, aholi umidlari, ularning intilishlari, shaxsiy va guruh munosabatlari namoyon bo'lish xususiyatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar.

Xulosa shuki, jamiyat taraqqiyotining sifat darajasi oshib borishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi mustahkamlanib, yanada murakkablashib boradi. Bu esa ijtimoiy sohani



rivojlantirish va unga tegishli omillaridan foydalanishni aks ettiradi. Ushbu omillar aholi hayot sifatini maksimal darajada ta'minlash uchun mavjud moddiy, axborot va boshqa resurslardan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Bu esa ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar sifatida jamiyat hayotining boshqa sohalaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ushbu munosabatlar tendensiyalari ularning sababiy bog'liqliklarini xilma-xil, murakkab va ma'lum darajada tartibga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азимов И.Н., Батыр уулу Алтынбек. Факторы, влияющие на социальное развитие общества. // Journal of Economy and Business, vol. 9-1 (79), 2021. – с. 9.
2. <https://cyberpedia.su/3x508a.html>



ИННОВАЦИИ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ СТОИМОСТИ КОМПАНИИ

Абдуллаева Мадина Бахадировна

Филиал Российского государственного Университета нефти и газа
(Национальный исследовательский университет) имени Ивана Михайловича

Губкина в городе Ташкенте

Преподаватель кафедры «Экономика нефти и газа»

ORCID: 0009-0004-5824-3395

Madi2902@mail.ru

АННОТАЦИЯ. Для обеспечения устойчивого развития компании необходима активизация инновационной деятельности, которая выступает ключевым фактором повышения эффективности и фундаментальной основой развития бизнеса. Инновации рассматриваются как одно из важнейших средств роста стоимости компании. Несмотря на то что их влияние сложно формализовать в количественных показателях, в целом инновационные процессы оказывают положительное воздействие на результаты экономического развития. Установлено, что традиционные методы оценки бизнеса (доходный, сравнительный и затратный подходы) не в полной мере учитывают значимость нематериальных активов, ESG-метрик и инновационного потенциала. Обосновывается необходимость интеграции современных инструментов — моделей реальных опционов, стоимостных индикаторов (EVA, MVA), а также подходов к учёту экологических и социальных факторов в систему оценки. Инновации и устойчивые бизнес-модели рассматриваются как стратегические драйверы долгосрочной конкурентоспособности и снижения рисков. Предлагаемые новые подходы к оценке стоимости компании позволяют более комплексно учитывать влияние цифровых технологий, «зелёных» практик и корпоративной социальной ответственности на экономическую эффективность бизнеса. [1].

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Инновации, устойчивое развитие, оценка стоимости компании, ESG, бизнес модель.

Современное развитие мировой экономики определяется усилением роли инноваций и переходом к устойчивым моделям развития. Компании, стремящиеся укрепить рыночные позиции, интегрируют в стратегию элементы цифровой трансформации, экологической ответственности и корпоративной социальной устойчивости. Решение задач устойчивого развития не только требует, но и открывает широкие возможности для внедрения инноваций во всех сферах деятельности компаний — от формирования ценности и определения критериев успеха до разработки и предоставления продуктов и услуг (Basile et al., 2011).



Существенным, но долгое время недооценённым направлением выступают инновации и развитие бизнес-моделей (Schaltegger et al., 2016). Усиление потребности в поиске новых механизмов инноваций и создании устойчивых бизнес-моделей обусловило рост интереса к данной области (см., напр., Bocken et al., 2014; Clinton & Whisnant, 2014; Upward & Jones, 2016; Kurucz et al., 2016). Остервальдер и Пиньёр (2010) трактуют бизнес-модель как логику создания, передачи и получения ценности организацией, предложив практический инструмент её реализации — Business Model Canvas (BMC), который стал фактическим стандартом в проектировании бизнес-моделей [2].

В Узбекистане вопросы инноваций и устойчивого развития напрямую связаны с реализацией долгосрочной государственной политики. В утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 Стратегии «Узбекистан — 2030» особое внимание уделено развитию науки, инноваций, цифровой экономики и «зелёных» технологий. Стратегия предусматривает достижение к 2030 году статуса страны с уровнем дохода выше среднего, рост инвестиций до 30 % ВВП, реализацию свыше 500 стратегически значимых проектов, в том числе в высокотехнологичных и инновационных отраслях. Эти ориентиры создают основу для внедрения современных методов оценки стоимости бизнеса, где ключевыми параметрами становятся не только финансовые показатели, но и ESG-метрики, цифровизация, инновационный потенциал и социальная устойчивость. Таким образом, интеграция национальных стратегических целей и современных научных подходов позволяет сформировать более комплексную и объективную систему оценки стоимости компаний, что способствует повышению их долгосрочной конкурентоспособности как на внутреннем, так и на международном рынках [3].

Одним из наиболее актуальных направлений инновационного развития является цифровизация бизнес-процессов и внедрение технологий искусственного интеллекта (AI) в систему оценки стоимости компаний. В мировой практике наблюдается тенденция перехода от традиционных методов анализа к интеллектуальной автоматизации и предиктивной аналитике. Такие технологии позволяют обрабатывать большие массивы данных, прогнозировать рыночные тренды и учитывать поведенческие факторы, что делает оценку более точной и динамичной.[1]

В условиях Узбекистана использование цифровых инструментов и ИИ приобретает стратегическое значение. В рамках реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» планируется активное внедрение цифровых платформ, «зелёных» технологий и интеллектуальных решений в экономику. Это напрямую влияет на подходы к оценке бизнеса: компании, инвестирующие в цифровые инновации, становятся более устойчивыми к рыночным рискам, повышают прозрачность своей деятельности и усиливают доверие инвесторов. Особое внимание следует уделить нефтегазовому сектору, который остаётся системообразующей отраслью экономики Узбекистана [5].



Сегодня в этой сфере усиливается необходимость оценки стоимости бизнеса с учётом факторов энергоэффективности, внедрения возобновляемых источников энергии и экологической устойчивости. Важную роль играет переход к международным стандартам (IFRS, ESG-отчётность), что требует интеграции новых методик оценки, учитывающих инновационный потенциал компаний и их способность адаптироваться к глобальным энергетическим трендам. Важным направлением становится трансформация нефтегазовой отрасли Узбекистана, ориентированная на постепенный переход к более устойчивым и инновационным моделям. В последние годы активно реализуются проекты по модернизации добычи и переработки углеводородов с применением энергоэффективных технологий, внедряются решения для сокращения углеродного следа и расширяются инициативы по использованию возобновляемых источников энергии. Это не только снижает экологические риски, но и повышает долгосрочную инвестиционную привлекательность компаний, так как устойчивые практики становятся важным драйвером роста рыночной стоимости.[4]

Наряду с этим факторы ESG оказывают значительное влияние на денежные потоки компаний, что создаёт ценную основу для интеграции ESG-метрик в систему оценки стоимости. Влияние ESG можно сгруппировать по следующим направлениям (см. Таблицу 1):

	Сильное предложение ESG (примеры)	Слабое утверждение ESG (примеры)
Рост валовой прибыли	Продвижение устойчивой продукции и «зелёных» услуг на рынках B2B и B2C, что увеличивает продажи и среднюю цену. Улучшение репутации и бренда приток клиентов и партнёров. Выход на новые международные рынки благодаря соответствию стандартам (эко-маркировка, соц. стандарты).	Потеря доли рынка из-за восприятия продукции как небезопасной/неустойчивой. Отказ ключевых клиентов/партнёров вследствие нарушений ESG (цепочки поставок, права человека). Заявление о планах увеличения прибыли без конкретных мероприятий по устойчивому развитию.
Снижение затрат	Снижение OPEX за счёт энергоэффективных мероприятий (модернизация, теплоизоляция, оптимизация процессов). Экономия на ресурсах (вода, сырьё) через рациональное потребление и ремануфактуринг. Снижение затрат за счёт модернизации оборудования, теплоизоляции и замкнутых циклов переработки.	Увеличение операционных расходов при отсутствии энерго и ресурсосбережения. Рост затрат на ликвидацию и утилизацию отходов при неэффективном управлении. Штрафы и восстановительные расходы при экологических инцидентах.
Правовые и нормативные факторы	Соблюдение национальных экологических стандартов и участие в субсидируемых программах.	Риск санкций, штрафов и ограничений деятельности при несоблюдении требований. Ограничения в участии в тендерах/контрактах с высокими ESG-требованиями.
Финансирование и доступ к капиталу	Привлечение финансирования через «зеленые» облигации,	Объявление о планах финансирования устойчивых



	льготные кредиты и государственные программы.	проектов без конкретных механизмов или инвестиций.
--	---	--

Таблица -1. Влияние ESG-факторов на ключевые показатели бизнеса в Узбекистане. Составлено автором .

В современном бизнесе компании в Узбекистане, внедряя инновационные технологии, цифровизацию и «зелёные» практики, укрепляют свою рыночную позицию, повышают эффективность работы и улучшают репутацию, одновременно открывая новые возможности на внутренних и международных рынках. Реализация ESG-инициатив способствует снижению операционных затрат, рациональному использованию ресурсов, соблюдению национальных экологических стандартов и участию в субсидируемых программах, что уменьшает экологические и финансовые риски. Доступ к «зелёным» облигациям, льготным кредитам и государственным программам поддержки повышает инвестиционную привлекательность компаний и укрепляет их долгосрочную конкурентоспособность. Учет ESG-метрик, инновационного потенциала, цифровизации и социальной устойчивости вместе с финансовыми показателями позволяет сформировать более полное и объективное представление о стоимости бизнеса и его устойчивом развитии [6].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Герасимов, И. В., & Козлов, В. В. (2018). Инновационные бизнес-модели в условиях цифровой экономики. Вестник Московского государственного университета экономики, статистики и информатики, 15(3), С 45–52.
2. Петров, С. А., & Смирнова, Н. В. (2019). ESG-факторы как инструмент оценки корпоративной устойчивости. Финансовый журнал, 21(2), С 102–110.
3. Президент Республики Узбекистан. (2023). Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 "Стратегия «Узбекистан — 2030»" [Электронный ресурс].
4. Basile, G., Adi, A., & Rizzi, F. (2011). Sustainability and innovation in business: Opportunities and challenges. Journal of Business Research, 64(12), С 1325–1333.
5. Upward, A., & Jones, P. (2016). An ontology for strongly sustainable business models: Defining an enterprise framework compatible with natural and social science. Organization & Environment, 29(1), С 97–123.
6. Bocken, N. M. P., et al. (2014). A literature and practice review to develop sustainable business model archetypes. Journal of Cleaner Production, 65, С 42–56.



THE ROLE OF GAMES IN LANGUAGE TEACHING

Artur Faridovich Gubaydullin

English Language Teacher,
Academic Lyceum of Urgench State University

Abstract: This article highlights the importance of games in language teaching. Games serve as an effective tool in the educational process to develop learners' language skills, increase their classroom participation, and create a natural communicative environment. In addition, through games, students develop creativity, collaboration, and critical thinking skills, as well as foster a positive attitude toward learning a foreign language.

Keywords: game, language teaching, participation, collaboration, creativity

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'qitishda o'yinlarning ahamiyati yoritiladi. O'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning darsdagi faolligini oshirish va tabiiy muloqot muhitini yaratishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, o'yinlar orqali o'quvchilar ijodkorlik, hamkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar hamda chet tilini o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradilar.

Kalit so'zlar: o'yin, til o'qitish, faollik, hamkorlik, ijodkorlik

Language teaching in the 21st century has been undergoing rapid transformation, largely driven by digital innovation and the need to align instruction with the learning styles of new generations of students. Traditional methods of foreign language teaching, while effective in providing structure and content, often lack the flexibility and interactivity necessary for sustained learner engagement. In this context, gamification has emerged as a powerful didactic strategy that reshapes the way language is taught and experienced. Gamification is defined as the use of game design elements in non-game settings (Deterding et al., 2011). In language education, this involves introducing elements such as points, badges, quests, role-play missions, and narrative-driven learning tasks. Rather than reducing learning to play, gamification enhances the classroom experience by blending academic objectives with engaging activities that mirror real-life communication and problem-solving. Importantly, gamification encourages learners to practice language in meaningful contexts, transforming classroom activities into opportunities for authentic use of the target language.

Gamification has gained recognition in educational research as an effective way of increasing classroom interactivity and improving learning outcomes. Deterding et al. (2011) provided the foundational definition of gamification, emphasizing the transfer of game mechanics into non-game contexts. Since then, numerous studies have explored its application in education, particularly in language



learning, where authentic interaction and practice are key. Suh, Wagner, and Liu (2017) note that gamified environments encourage sustained participation by structuring tasks as challenges with clear goals and immediate feedback. In language classrooms, this can mean transforming reading comprehension tasks into quests or collaborative projects into competitive challenges. Such approaches help learners remain engaged while practicing language skills in dynamic contexts.

One of the strongest contributions of gamification lies in its ability to foster communicative competence. Role-play games, debates, or story-based quests encourage learners to use language in authentic, interactive ways. Lam et al. (2020) found that gamified integrated tasks—such as combining reading with creative writing or listening with collaborative problem-solving—enhance fluency and accuracy while also reinforcing pragmatic skills.

Gamification also contributes to social interaction. Leeming (2018) observed that cooperative missions in gamified classrooms help students build teamwork skills, develop responsibility toward peers, and create a sense of shared achievement. Collaborative games foster peer-to-peer support, which is particularly important in second language learning, where students benefit from collective problem-solving and communication practice. Many gamified tasks such as digital escape rooms, narrative-based quests, or project-based challenges require learners to use creativity and critical thinking. By designing solutions, negotiating rules, or constructing stories, students engage in higher-order thinking while simultaneously applying their linguistic knowledge. Research by Reinhardt (2019) shows that gamification supports not only linguistic but also cognitive and creative development.

Gamified contexts can lower affective barriers to learning. By framing tasks as games, learners often feel less pressure and more freedom to experiment with the target language. Errors are perceived as part of the game process rather than as failures, reducing anxiety and encouraging risk-taking in communication. Taken together, these studies highlight that gamification extends far beyond the simple addition of fun. It creates structured yet flexible learning environments that enhance interaction, communicative practice, creativity, and collaborative learning—all essential for effective foreign language acquisition.

Gamification represents an innovative and effective approach to language teaching, offering benefits that go well beyond traditional instructional strategies. By integrating game elements into classroom activities, teachers can create learning environments that are interactive, collaborative, and closely aligned with real-world communication. The evidence shows that gamification improves classroom engagement, fosters communicative competence, encourages creativity and problem-solving, and reduces the anxiety often associated with language learning. Successful application, however, depends on thoughtful design. Teachers must ensure that game elements align with pedagogical objectives, that competition is balanced with cooperation, and that tasks remain inclusive and accessible to all learners. Rather than replacing conventional methods, gamification complements them by enriching classroom practice and making language learning more dynamic and sustainable.



References

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From game design elements to gamefulness: Defining “gamification.”* Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 9–15. <https://doi.org/10.1145/2181037.2181040>
2. Lam, R., Hew, K. F., & Chiu, K. F. (2020). *Implementing gamification in EFL classrooms: A meta-analysis.* Language Learning & Technology, 24(3), 36–64.
3. Leeming, P. (2018). *Longitudinal effects of cooperative learning on student interaction in the classroom.* ELT Journal, 72(2), 173–182.
4. Reinhardt, J. (2019). *Gameful second and foreign language teaching and learning: Theory, research, and practice.* Palgrave Macmillan.
5. Suh, A., Wagner, C., & Liu, L. (2017). *Enhancing user engagement through gamification.* Journal of Computer Information Systems, 58(3), 204–213. <https://doi.org/10.1080/08874417.2016.1229143>



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Eshonova Dilnoza Abrorovna

Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni
Kasbiy rivojlantirish va yangi metodlarga
o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti
eshonova_dilnoza1515@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi kunda ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda nafaqat til bilimlarini berish, balki ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya-bu tilni amaliy jihatdan qo'llay olish, fikr almashish, turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, til egallash, og'zaki muloqot, o'qitish metodologiyasi, til ko'nikmalarini rivojlantirish, sinfdagi muloqot.

Аннотация. В настоящее время английский язык играет важную роль как глобальное средство коммуникации. Поэтому при обучении учащихся начальных классов английскому языку важно не только передавать языковые знания, но и развивать их коммуникативную компетенцию. Коммуникативная компетенция-это способность практически применять язык, обмениваться мыслями и эффективно общаться в различных ситуациях. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития коммуникативной компетенции учащихся начальных классов при изучении английского языка.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, начальное образование, овладение языком, устное общение, методология преподавания, развитие языковых навыков, взаимодействие в классе.

Annotation. Nowadays, the English language plays a significant role as a global means of communication. Therefore, teaching English to primary school students involves not only imparting language knowledge but also developing their communicative competence. Communicative competence refers to the ability to practically use the language, exchange ideas, and communicate effectively in various situations. This article examines the theoretical and methodological foundations for developing communicative competence in primary school students learning English.

Keywords: communicative competence, primary education, language acquisition, oral communication, teaching methodology, language skills



development, classroom interaction.

Bugungi globalizatsiya davrida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ta'lim, biznes va madaniyat sohalarida asosiy tilga aylangan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda ularning nafaqat til bilimlarini, balki kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiya – bu tilni amaliy ravishda qo'llash, turli vaziyatlarda muloqot qilish va o'z fikrlarini to'g'ri ifoda etish qobiliyatidir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali nazariy va metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kommunikativ kompetensiya atamasi birinchi bo'lib amerikalik tilshunos Dell Xyumonski tomonidan ilgari surilgan. U til bilimidan tashqari, muloqotda samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan madaniy va kontekstual bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Til o'rganishda bu kompetensiya nafaqat grammatik qoidalarni bilishni, balki ularni muloqotda to'g'ri va vaqtida qo'llashni anglatadi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning eslab qolish va nutqiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ko'p takrorlash va o'yinlar orqali so'z boyligini oshirish, dialoglar tashkil etish tilni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Kommunikativ yondashuv-ingliz tilini o'rgatishda eng samarali metodlardan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi tilni amaliy kontekstda qo'llashdir. O'quvchilar muloqot jarayonida nutqiy vazifalarni bajaradilar, ya'ni ular faqat grammatikani o'rganibgina qolmay, balki real hayotiy vaziyatlarda suhbat qurishni o'rganadilar.

Mashq: O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi vazifani beradi:

«Mening ismim...», «Men ... yoshdaman», «Mening sevimli rangim ...» kabi oddiy gaplarni aytish. Bu mashq boshlang'ich darajadagi o'quvchilarda o'zini tanishtirish va oddiy suhbatni boshlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Vaziyatli o'rgatish (Task-based learning)

Bu metodda o'quvchilarga ma'lum bir vazifa beriladi va ular shu vazifani bajarish jarayonida tilni qo'llaydilar. Vazifalar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo'ladi.

Misol: Bozorga borish, do'konda savdo qilish, soatni so'rash kabi vazifalar o'quvchilarga kontekstda tilni amaliy qo'llash imkonini beradi.

Metodologik tavsiyalar va texnologiyalar

O'yinlar va interaktiv mashqlar

Bolalar o'yin orqali o'rganishni yaxshi qabul qiladilar. Masalan, rol o'yinlar, so'z topish o'yinlari, o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, dialoglar qurish kabi mashqlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalaridan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar, xususan audio va video materiallar, interaktiv dasturlar o'quvchilarning eshitish va gapirish ko'nikmalarini oshirishda samarali vositalardir. Misol uchun, ingliz tilidagi qisqa multfilmlar ko'rish va so'ngra unga oid savollarga javob berish mashqlari nutqiy faoliyatni rivojlantiradi.



Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyani oshirishga qaratilgan ba'zi mashq namunalarini keltiramiz:

Mashq turi	Vazifa tavsifi	Maqsad
Rol o'yin	Do'konda xarid qilish, do'st bilan suhbat qurish	Nutqni amalda qo'llash
Dialog tuzish	«Salom! Qalaysiz?» kabi oddiy savol-javoblar	O'zaro muloqot ko'nikmasini rivojlantirish
Hikoya aytish	O'z hayotingiz haqida qisqa hikoya qilish	Nutqni rivojlantirish va so'z boyligini oshirish

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu nafaqat til bilimini oshirish, balki o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Samarali metodikalardan foydalanish, jumladan kommunikativ yondashuv, vaziyatli o'rgatish, o'yinlar va multimedia vositalari ushbu jarayonni samarali qiladi. Shuningdek, doimiy mashq va amaliyot orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269-293). Penguin Books.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
4. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). *Games for Language Learning*. Cambridge University Press.
5. Littlewood, W. (2004). *The Task-Based Approach: Some Questions and Suggestions*. *ELT Journal*, 58(4), 319-326.
6. Savignon, S. J. (2002). *Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice*. Yale University Press.
7. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching* (2nd ed.). Oxford University Press.



LEARNER AUTONOMY IN LANGUAGE LEARNING

Mahliyo Kukiboyeva

Independent researcher of Namangan State University

Abstract: This article highlights the role of learner autonomy in language learning, along with its benefits and challenges. Autonomy helps students stay motivated, become more aware of their learning, and achieve long-term success. However, it also requires teacher guidance, suitable support, and attention to cultural factors.

Keywords: learner autonomy, language learning, motivation, student-centered learning

Аннотация: В данной статье рассматривается роль автономии учащегося в изучении иностранных языков, а также её преимущества и трудности. Автономия помогает студентам повышать мотивацию, лучше осознавать собственный процесс обучения и достигать долгосрочных результатов. Вместе с тем она требует руководства преподавателя, соответствующей поддержки и учета культурных факторов.

Ключевые слова: автономия учащегося, изучение языка, мотивация, обучение, ориентированное на студента

In recent decades, learner autonomy has become a cornerstone of language teaching theory and practice. Since Holec's (1981) influential definition of autonomy as "the ability to take charge of one's own learning," scholars and practitioners have emphasized that successful language learning cannot be achieved through teacher transmission alone. Learners must develop the skills, confidence, and strategies to direct their own progress both inside and outside the classroom. In an era of global communication, digital learning resources, and lifelong education, autonomy in language learning is not merely desirable but essential.

The concept of learner autonomy draws on several overlapping traditions. Constructivist views, inspired by Vygotsky (1978), stress that knowledge is actively built rather than passively received. Language learners, therefore, must engage in reflective, self-directed activity that integrates new input with prior knowledge. Humanistic education, advanced by Rogers (1969), adds that genuine learning occurs when learners are free to pursue goals aligned with their interests and needs, guided by intrinsic motivation. Self-determination theory (Deci & Ryan, 1985) further reinforces autonomy's value by highlighting autonomy, competence, and relatedness as fundamental psychological needs. Language learning, which requires persistence, experimentation, and risk-taking, thrives when learners feel volitional and self-directed. Little (1991) emphasizes that autonomy is not synonymous with isolation; instead, it involves interdependence, where learners collaborate, reflect, and make informed decisions about their learning paths.



In practical terms, learner autonomy in language learning manifests in multiple ways. Autonomy involves setting personal goals, selecting materials, employing strategies, monitoring progress, and engaging in self-assessment (Benson, 2013). Many classroom practices encourage these skills. For instance, portfolios and learning journals allow learners to track progress and reflect on strategies. Peer collaboration and project-based activities encourage responsibility-sharing, while technology—from mobile apps to online communities—extends opportunities for self-directed learning beyond the classroom. The growth of digital learning environments has amplified the importance of autonomy. Learners now have access to abundant online resources such as MOOCs, language apps, podcasts, and virtual exchange programs. To benefit from these resources, however, learners must be capable of managing choices, evaluating credibility, and sustaining motivation, all of which require autonomy. Teachers thus play a key role in scaffolding autonomy, gradually transferring responsibility to learners while ensuring they have the strategies to succeed.

The benefits of autonomy in language learning are well documented. Research shows that autonomous learners demonstrate greater motivation, persistence, and metacognitive awareness (Littlewood, 1999; Benson, 2013). By setting personal goals and monitoring their progress, learners cultivate responsibility and ownership, which strengthens long-term achievement. Autonomy also fosters flexibility: learners are better able to adapt strategies, engage in authentic communication, and take advantage of opportunities beyond the classroom. Importantly, autonomy supports lifelong learning. Language acquisition rarely ends within a formal program; it extends into professional, academic, and social contexts. Learners who have developed autonomy are equipped to continue improving, whether through reading, travel, or online interaction. In this sense, autonomy is not only a pedagogical principle but also a practical necessity in an interconnected world.

Despite its advantages, autonomy cannot be assumed to develop uniformly across all contexts. Cultural expectations strongly influence learners' attitudes. In East Asian settings, for example, students often value teacher guidance and collective achievement, showing preference for “reactive autonomy” within structured frameworks (Littlewood, 1999). In contrast, learners in Western contexts may be more comfortable with “proactive autonomy,” where independence and self-initiative are expected. Teachers' beliefs also play a crucial role. Alrabai (2017) found that Saudi students expressed positive attitudes toward autonomy but were constrained by traditional teacher-centered norms. This tension highlights that autonomy is not culturally neutral but shaped by values around authority, collaboration, and responsibility. Educators must therefore adopt culturally sensitive approaches that balance scaffolding with freedom, ensuring learners do not feel abandoned or overwhelmed. Another challenge lies in assessment. Standardized exams often reward memorization and accuracy rather than self-directed inquiry. This misalignment can discourage both teachers and learners from embracing



autonomy-oriented practices. Structural reforms are thus necessary if autonomy is to be integrated meaningfully into curricula.

Promoting learner autonomy requires deliberate pedagogical strategies. Teachers must transition from knowledge transmitters to facilitators, guiding learners toward reflection and responsibility. Specific techniques include goal-setting exercises, self- and peer-assessment, collaborative projects, and the use of reflective portfolios. Integrating technology in meaningful ways also empowers learners to practice outside the classroom while maintaining accountability through guided frameworks. Professional development is equally vital. Teachers need training not only in autonomy-supportive methods but also in managing cultural expectations and balancing guidance with freedom. As Weimer (2002) argues, learner-centered education demands changes in both classroom dynamics and institutional policies. Without systemic support, autonomy may remain an ideal rather than a reality.

Learner autonomy in language learning represents a paradigm shift from teacher-controlled transmission to learner-centered engagement. Rooted in constructivist and humanistic theories, autonomy emphasizes learners' responsibility for setting goals, selecting strategies, and reflecting on outcomes. It enhances motivation, supports lifelong learning, and equips learners to thrive in a globalized world. Yet autonomy is not a one-size-fits-all construct; it must be nurtured with sensitivity to cultural contexts, institutional constraints, and learner readiness. The challenge for language educators is to balance guidance and freedom, scaffolding learners toward greater independence without neglecting their need for structure and support. Ultimately, autonomy is both the means and the end of effective language learning, shaping not only proficiency but also the capacity to learn beyond the classroom.

References:

1. Alrabai, F. (2017). Exploring the unknown: The autonomy of Saudi EFL learners. *English Language Teaching*, 10(5), 222–233. <https://doi.org/10.5539/elt.v10n5p222>
2. Benson, P. (2013). *Teaching and researching autonomy* (2nd ed.). Routledge.
3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Springer.
4. Holec, H. (1981). *Autonomy and foreign language learning*. Pergamon.
5. Little, D. (1991). *Learner autonomy 1: Definitions, issues and problems*. Authentik.
6. Littlewood, W. (1999). Defining and developing autonomy in East Asian contexts. *Applied Linguistics*, 20(1), 71–94. <https://doi.org/10.1093/applin/20.1.71>
7. Rogers, C. R. (1969). *Freedom to learn*. Merrill.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
9. Weimer, M. (2002). *Learner-centered teaching: Five key changes to practice*. Jossey-Bass.



ERIKSON NAZARIYASIDA IJTIMOIIY IDENTIFIKATSIYA INQIROZI VA UNING O'SMIRLAR JINOYATCHILIGIGA TA'SIRI

Umidullayeva Marjona Ulug'bek qizi
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida yuzaga keladigan ijtimoiy identifikatsiya inqirozining psixologik mohiyati va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi asosida o'smirning "Men kimman?" savoliga javob izlash jarayonida paydo bo'ladigan shaxsiy ziddiyatlar, rol chalkashuvi va ularning oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, identifikatsiya inqirozining noto'g'ri hal etilishi natijasida deviant xulq va jinoyatchilikka moyillik shakllanishi masalalari nazariy yondashuvlar doirasida o'rganiladi. Maqola o'smir shaxsini sog'lom rivojlantirish va ijobiy ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish yo'llariga oid ilmiy qarashlarni umumlashtiradi.

Kalit so'zlar: O'smirlik, ijtimoiy identifikatsiya, identifikatsiya inqirozi, "Men kimman?", rol chalkashuvi, shaxsiy ziddiyat, Erikson nazariyasi, deviant xulq, jinoyatchilikka moyillik, psixososial rivojlanish.

Erik Erikson (1902–1994) zamonaviy psixologiya tarixida shaxs rivojlanishini bosqichma-bosqich tushuntirib bergan eng mashhur olimlardan biridir. Uning **psixososial rivojlanish nazariyasi** inson hayotini tug'ilishdan to qarilik davrigacha davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi. Erikson nazariyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson shaxsiy rivojlanishida nafaqat biologik omillar, balki **ijtimoiy muhit, madaniyat va ijtimoiy tajribalar** ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning yondashuvi Freyding psixoanalitik nazariyasidan kelib chiqqan bo'lsa-da, Erikson biologik instinkt va ichki ehtiyojlardan tashqari, shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga ham katta ahamiyat berdi. Shu sababli uning nazariyasi **psixososial** deb ataladi – ya'ni shaxs rivojida ham psixik (ichki) va ham ijtimoiy (tashqi) omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi.

Erikson inson hayotini **sakkiz bosqichga** ajratib, har bir bosqichda shaxs oldida ma'lum **psixososial inqiroz** (konflikt) paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Bu inqirozlar ijobiy yoki salbiy hal qilinishi mumkin. Agar shaxs uni to'g'ri yengib o'tsa, keyingi bosqichga muvaffaqiyatli o'tadi va sog'lom shaxsiy rivojlanishga erishadi. Agar esa inqiroz noto'g'ri hal qilinsa, bu keyingi bosqichlarda qiyinchilik va psixologik muammolarga sabab bo'ladi.

Masalan: Go'daklik davrida "ishonch – ishonchsizlik" inqirozi yuz beradi. Bola onasi va yaqinlariga ishonch hosil qilsa, keyinchalik atrofdagi odamlarga ham ishonchli munosabatda bo'ladi.

O'smirlik davrida esa eng muhim inqiroz – **"identifikatsiya – rol chalkashuvi"** yuz beradi. O'smir "Men kimman?" degan savolga javob izlab, o'zini



jamiyatdagi turli rollar bilan taqqoslaydi. Agar bu bosqich muvaffaqiyatli yengilsa, o'smir ijobiy identifikatsiyaga erishadi; aks holda shaxsiy inqirozlar, deviant xulq va jinoyatchilikka moyillik paydo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi shaxsni tushuntirishda keng qo'llaniladigan konsepsiyalardan biridir. U nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya va kriminologiya sohalarida ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim psixososial bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda shaxsning o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish va kelajakdagi hayot yo'lini belgilash jarayonlari faol kechadi. Erikson nazariyasida bu bosqichning markaziy inqirozi "identifikatsiya – rol chalkashuvi" sifatida talqin etiladi. Bu inqirozning mohiyati shundan iboratki, o'smir "Men kimman?" degan fundamental savolga javob izlaydi.

1. "Men kimman?" savolining mazmuni O'smir o'zini turli jihatdan sinab ko'radi: kasbiy qiziqishlar, ijtimoiy rollar, ma'naviy qadriyatlar, diniy yoki mafkuraviy qarashlar. Bu jarayonda u ota-onasidan o'rnak olishi, tengdoshlar ta'sirida bo'lishi yoki jamiyatning umumiy qadriyatlarini qabul qilishi mumkin. Ammo bu jarayon ko'pincha qarama-qarshiliklar, shubhalar va izlanishlar bilan kechadi.

2. Identifikatsiya inqirozining psixologik mohiyati O'smirda o'z "Men" konsepsiyasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, u turli ijtimoiy rollar orasida adashib qolishi mumkin.

Shaxsiy qadr-qimmat, mustaqillik va erkinlik uchun intilish kuchayadi.

Qaror qabul qilishda beqarorlik, his-tuyg'ularning o'tkirligi va "ideal Men" bilan "real Men" o'rtasidagi ziddiyatlar paydo bo'ladi.

3. "Men kimman?" savolining ijtimoiy dolzarbligi O'smir bu savolga javob izlar ekan, u jamiyatda o'z o'rnini aniqlashga harakat qiladi. Agar bu jarayon ijobiy yo'nalishda kechsa, o'smir o'zining shaxsiy qadriyatlariga ega, mustahkam identifikatsiyani shakllantiradi. Ammo bu savolga qoniqarli javob topilmasa:

rol chalkashuvi yuz beradi,

shaxsiy inqiroz chuqurlashadi,

o'zini tasdiqlashning noto'g'ri shakllari (tajovuzkorlik, deviant xulq, jinoyatchilik) paydo bo'lishi mumkin.

4. Dolzarblikning zamonaviy sharoitdagi ahamiyati Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda o'smirlar "Men kimman?" savoliga yanada murakkab sharoitda javob izlamoqdalar. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual submadaniyatlar ularga ko'plab identifikatsiya modellarini taklif qilmoqda. Bu esa shaxsiy tanlovni osonlashtirish bilan birga, noto'g'ri yo'nalishga og'ish xavfini ham oshiradi.

O'smirlik davrida shaxs rivojlanishi tez sur'atlarda kechadi: fiziologik o'zgarishlar, jinsiy yetilish, mustaqillik istagi va ijtimoiy rollarning kengayishi shaxs ichki dunyosida turli qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Erikson ta'kidlaganidek, bu davrning asosiy inqirozi - **"identifikatsiya va rol chalkashuvi"** - o'zini anglash jarayonida kuchli **shaxsiy ziddiyatlarni** keltirib chiqaradi.



№	Asosiy yoʻnalish	Mazmuni
1	Shaxsiy ziddiyatlarning manbalari	- Ideal va real “Men” oʻrtasidagi tafovut - Oila va jamiyat talablari bilan shaxsiy istaklar toʻqnashuvi - Tengdoshlar bosimi va mustaqil fikr oʻrtasidagi qarama-qarshilik
2	Ziddiyatlarning oqibatlari	- Qaror qabul qilishda ikkiyoqlama holatlar - Oʻzini qadrlashdagi beqarorlik (yuqori yoki past baho) - Tajovuzkorlik va qarshilik - Ijtimoiy rolni izlashdagi chalkashliklar
3	Jinoyatchilikka moyillik	- Agressiv xatti-harakat - Tartibbuzarlik - Huquqbuzarlik va jinoyatga moyillik - Guruh ichida oʻz mavqeini koʻrsatish istagi
4	Bartaraf etish yoʻllari	- Oila va maktab tomonidan ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash - Psixologik maslahatlar va toʻgʻri yoʻnaltirish - Sport va ijodiy faoliyat orqali “Men”ni ifodalash - Ijtimoiy foydali mashgʻulotlar orqali oʻzini tasdiqlash

Oʻsmirlik davrida shaxsning oʻzini anglash jarayoni keskin faollashadi. Erikson nazariyasida bu bosqichning asosiy xususiyati **“rol chalkashuvi”** deb ataladi. Rol chalkashuvi - oʻsmirning jamiyatdagi turli rollarni sinab koʻrishi, biroq ularni barqaror identifikatsiyaga birlashtira olmasligidir. Natijada u “Men kimman?”, “Qaysi yoʻlni tanlashim kerak?” kabi savollarga aniq javob topa olmaydi. Agar bu jarayon ijobiy hal etilsa, oʻsmir mustahkam identitetga ega boʻladi; aks holda, shaxsiy beqarorlik, maqsadsizlik va deviant xulq paydo boʻlishi mumkin.

№	Yoʻnalish	Mazmuni
1	Rol chalkashuvining mohiyati	- Oʻsmirning jamiyatda oʻz oʻrnini aniqlashdagi qiyinchiliklari - Turli ijtimoiy rollar orasida adashish - “Men kimman?” savoliga aniq javob topa olmaslik
2	Psixologik belgilar	- Ichki qarama-qarshiliklarning kuchayishi - Oʻzini qadrlashdagi beqarorlik - Qaror qabul qilishda ikkilanib qolish - Ruhiy izolyatsiya yoki yolgʻizlik hissi
3	Salbiy oqibatlar	- Shaxsiy maqsad va qadriyatlarning yoʻqolishi - Deviant xulq va jinoyatchilikka moyillik - Notoʻgʻri submadaniyatga qoʻshilish - Psixologik stress va nevroitik holatlar
4	Ijobiy hal boʻlganda	- Barqaror “Men-konsepsiya” shakllanishi - Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati - Kelajak kasbiy va ijtimoiy yoʻnalishning aniqligi - Ijobiy identifikatsiya va shaxsiy oʻsish

Demak, **rol chalkashuvi** oʻsmirlik davridagi eng xavfli, ammo eng muhim psixosozial sinovlardan biridir. Uni toʻgʻri yengib oʻtgan oʻsmir mustahkam shaxsga



aylanadi, noto'g'ri hal bo'lsa, bu holat shaxsning kelgusidagi ijtimoiy muammolariga sabab bo'ladi.

O'smirlik davri shaxs rivojlanishida murakkab va mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi asosida ko'rib chiqilganda, bu davrning eng muhim muammosi-identifikatsiya inqirozidir. O'smir "Men kimman?" savoliga javob izlar ekan, ichki qarama-qarshiliklar va rol chalkashuvini boshdan kechiradi. Agar bu jarayon ijobiy hal etilsa, o'smir barqaror identitet, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijobiy ijtimoiy yo'nalishga ega bo'ladi. Aksincha, noto'g'ri hal etilgan inqiroz shaxsiy beqarorlik, deviant xulq, tajovuzkorlik va hatto jinoyatchilikka moyillik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, o'smirlik davridagi identifikatsiya inqirozini ijtimoiy-psixologik jihatdan to'g'ri boshqarish, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalari va psixologik xizmatlarning faol ishtiroki orqali bu bosqichni ijobiy natijaga yo'naltirish mumkin. Natijada jamiyat barqaror, ijtimoiy faol va o'z yo'lini aniq belgilagan avlodni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*
2. Erikson, E. H. (1950). *Childhood and Society*
3. Sutherland, E. H. (1947). *Principles of Criminology* - "Differential Association
4. *Theories of Deviance* (to'plam) - Differential Association va Labeling
5. ResearchGate maqolasi: "Theory of Differential Association" (Ahmet Maloku, 2020)



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

YANGI O'ZBEKISTONDA QO'G'IRCHOQ TEATRI SAN'ATI: AMALIY
RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Ro'ziqulova Lola Qurvonaliyevna

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri,

Oliy toifali aktrisasi

El.pochta: lolaazimova994@gmail.com

Ro'ziqulov Sanjar Toshtemir o'g'li

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri,

Oliy toifali aktyori

O'zRFA San'atshunoslik instituti

Mustaqil tadqiqotchisi

El.pochta: mahinator4ik@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri san'atining O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri misolida bugungi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Unda milliylik va identifikatsiya, janr hamda auditoriya kengayishi, pedagogik-ijtimoiy vazifalar, xalqaro tajriba almashinuvi va teatrning yangi davr tomoshabiniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, xalqaro maydonda teatrning o'rni va istiqbolli strategiyalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: qo'g'irchoq teatri, milliylik, identifikatsiya, auditoriya, pedagogik missiya, xalqaro tajriba, Yangi O'zbekiston.

Yangi O'zbekistonda teatr san'ati, jumladan, qo'g'irchoq teatri madaniy hayotning ajralmas qismi sifatida yangicha bosqichga ko'tarilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qo'g'irchoq teatri bugun faqat bolalar tomoshasi emas, balki falsafiy, ijtimoiy va pedagogik mazmunga ega san'at turi sifatida shakllanmoqda. Masalan, Yaponiyaning bunraku teatrida aktyor, qo'g'irchoq va musiqachining birgalikdagi hamkorligi uni milliy meros darajasiga ko'targan bo'lsa, Yevropada marionetka teatrlari opera va balet kabi yuksak janrlarni ham o'z ichiga oladi (Schechter, 2021). Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri san'atining rivojlanishi milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda zamonaviy innovatsiyalarni uyg'unlashtirishga asoslanishi lozim.

O'zbekiston mustaqillikdan keyingi yillarda qo'g'irchoq teatri san'atini milliy teatr makonining muhim qismi sifatida rivojlantirish yo'lida qator bosqichlarni bosib o'tdi. Bugungi Uchinchi renesans deb atalayotgan davrda, qo'g'irchoq teatri o'z oldiga milliylik va identifikatsiya, innovatsion yondashuv, janr va auditoriya kengligi, pedagogik va ijtimoiy missiya, xalqaro tajriba almashinuvi orqali badiiy rivojlanish, texnik-texnologik hamda tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalarini



rivojlantirish kabi talablarni qo'yadi. Quyida O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining ushbu vazifalar yuzasidan amalga oshirayotgan ishlari tahlil qilinadi.

1. Milliylik va identifikatsiya. S. Obrazsov ta'kidlaganidek: "Qo'g'irchoq teatrida qolip asosida emas, balki doimo o'z yo'nalishini, o'ziga xosligini topishga intilish kerak" (Obraztsov, 1962). Ushbu fikr O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri uchun ham dolzarb bo'lib, milliylikni saqlagan holda yangi sahna shakllarini izlash muhim vazifa hisoblanadi.

Rejissyor Sh. Yusupovning "Yurt tumori – To'maris"(T.To'la) spektaklida gibrid qo'g'irchoqlardan foydalanilishi bunga yorqin misol bo'ldi. Qo'g'irchoqning yuqori qismi yasalgani, oyoqlari esa jonli aktyorga tegishli bo'lgani holda, sahnada inson va qo'g'irchoq uyg'unligi hosil qilindi. Bu uslub milliy qahramonlarni zamonaviy ifoda shakllarida jonlantirish imkonini berdi. Shu tariqa, milliy identifikatsiya zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashdi.

2. Innovatsion yondashuv va texnologiyalar. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida texnologik vositalardan foydalanish keng tarqalmoqda. O'zbekistonda ham rejissyorlar Sh. Yusupov va D. Yuldasheva spektakllarda videoproeksiya va 3D effektlarni qo'llash orqali tomoshabin tajribasini boyitmoqda.

S. Schechter ta'kidlaganidek: "21-asr qo'g'irchoq teatri texnologiya orqali qo'g'irchoqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo uni almashtirmaydi" (Schechter, 2021, p. 87). Bu jihat qo'g'irchoq teatrida texnologiyani maqsad emas, balki ifodani boyituvchi vosita sifatida ishlatish zarurligini ko'rsatadi. Professor H. Jurkowski ham qo'g'irchoqning ramziy kuchiga e'tibor qaratib, shunday deydi: "Qo'g'irchoq aktyor o'rnini bosmaydi, balki teatrning ramziy o'lchamlarini ochuvchi vositadir" (Jurkowski, 2014, p. 142). Demak, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri zamonaviy texnologiyalarni milliy dramaturgiya bilan uyg'unlashtirishi zarur.

3. Janr rang-barangligi va auditoriya kengayishi. So'nggi yillarda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri repertuarida turli janrdagi asarlar paydo bo'ldi. "Hamlet", "Soya", "Shiroq", "Alvon gul yohud Sohibjamol va mahluq" kabi spektakllar kattalar auditoriyasi uchun ham mo'ljallanganini ko'rsatmoqda.

Bunday tajribalar qo'g'irchoq teatrining faqat bolalar san'ati emasligini, balki murakkab falsafiy va ijtimoiy muammolarni ham yoritish imkoniyatiga ega ekanini tasdiqlaydi. Natijada teatr auditoriyasi kengayib, turli yoshdagi tomoshabinlar jalb etilmoqda.

4. Pedagogik va ijtimoiy missiya. Qo'g'irchoq teatri yosh avlod tarbiyasida noyob vositadir. Spektakllar orqali bolalarda halollik, jasorat, do'stlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar shakllanadi. Shu bilan birga, ekologik ong, milliy o'zlik va insonparvarlik g'oyalari ham singdiriladi.

Bu borada ilmiy manbalarda ham qo'g'irchoq teatrining tarbiyaviy vazifasi alohida ta'kidlanadi. Masalan, E. Barba qo'g'irchoq teatrining ta'sirini izohlar ekan, shunday deydi: "Qo'g'irchoq va aktyor o'rtasidagi o'yinga asoslangan tajriba tomoshabinda estetik va ma'naviy uyg'unish hosil qiladi" (Barba, 1995). Demak,



O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri jamiyatda nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-ma'naviy missiyani ham ado etmoqda.

5. Xalqaro tajriba almashinuvi. O'zbekiston qo'g'irchoq teatrining xalqaro maydondagi ishtiroki so'nggi yillarda sustlashgani kuzatiladi. Asosan kichik konsert shaklidagi chiqishlar bilan cheklanish teatrning keng imkoniyatlarini namoyish eta olmayapti.

Holbuki, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri repertuarida "Hamlet", "To'maris", "Soya" kabi spektakllar mavjud bo'lib, ular xalqaro auditoriya oldida teatr san'atini yuqori darajada namoyish qila oladi. Shu bois xalqaro festivallar va laboratoriyalarda faol ishtirok etish teatr uchun dolzarb ehtiyojdir.

6. Yangi strategik yo'nalishlar. Yangi O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrining istiqbollari quyidagilar bilan belgilanadi:

Janr xilma-xilligini kengaytirish (falsafiy, tarixiy, satirik, ijtimoiy asarlar);
Multimedia va raqamli texnologiyalarni sahnaga tatbiq etish;
Interaktiv va immersiv teatr shakllarini joriy qilish;
Pedagogik dasturlarni kengaytirish, maktablar bilan hamkorlikda mahorat darslari tashkil etish;

Xalqaro hamkorlik va qo'shma loyihalarda faol ishtirok etish;
Marketing va PR strategiyalaridan foydalanib, auditoriyani kengaytirish.
Umuman olganda, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Milliy identifikatsiya, texnologik innovatsiyalar, janr xilma-xilligi, pedagogik va ijtimoiy missiya hamda xalqaro tajriba almashinuvi teatrning strategik yo'nalishlari sifatida belgilanishi zarur. Shu tariqa qo'g'irchoq teatri nafaqat bolalar, balki barcha yosh auditoriya uchun jozibador va tarbiyaviy jihatdan ta'sirchan san'at makoniga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obratsov, S. (1962). My Profession. Moscow: Iskustvo.
2. Jurkowski, H. (2014). A History of European Puppetry. London: Routledge.
3. Schechter, S. (2021). Puppetry in the 21st Century. New York: Palgrave Macmillan.
4. Barba, E. (1995). The Paper Canoe: A Guide to Theatre Anthropology. London: Routledge.
5. Yusupov, Sh. (2018). Intervyular va sahna ishlanmalari asosida. Toshkent: O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri arxivi.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АТОПИЧЕСКОГО
ДЕРМАТИТА У ДЕТЕЙ

НИШАНБАЕВА Н.Ю.,
АБДУЛЛАЕВА С.А.,
САМАТОВА Г.У.

Ташкентская медицинская
Академия кафедры педиатрии
e-mail: abdullaevasarvinozxon@mail.ru

Введение: Распространенность атопического дерматита неуклонно увеличивается во всех странах мира. Изменился патоморфоз заболевания, характеризующийся очень ранней манифестацией, повышением частоты тяжелого течения, расширением площади поражения кожи, увеличением доли осложненных инфекцией форм болезни

Ключевые слова: атопический дерматит, сопутствующие заболевания, гельминтозы

Актуальность: Атопический дерматит – раннее и самое частое клиническое проявление атопии у детей – представляет собой хроническое наследственно обусловленное аллергическое воспаление кожи, в основе которого лежат иммунные механизмы формирования [1]. Заболевание клинически характеризуется зудом, возрастной морфологией высыпаний, склонностью к рецидивирующему течению [2].

Цель исследования: выявить частоту встречаемости сопутствующих осложнений у детей с атопическим дерматитом

Материал и методы исследования: на базе Ташкентской Медицинской Академии Кафедры Педиатрии был проведен ретроспективный анализ 77 пациентов с атопическим дерматитом. Все пациенты проходили через стандартные, специальные и лабораторные методы исследования. В некоторых случаях была проведена консультация смежных специалистов

Результаты исследования: было выяснено, что 47 пациентов (61%) были девочки и 30 пациентов (39%) были мальчики. В 40% случаев (31 пациент) были дети от 6 месяцев до 3-х лет, в 36.5% случаев (28 пациентов) были дети от 3 -х до 7 лет и 23.5% случаев (18 пациентов) были дети от 7 до 14 лет. В 58% случаев атопический дерматит наблюдался в персистенции с гельминтозами, в 27% случаев с хроническим гастроудоденитом, в 19% с хроническим гастритом и 16% случаев с бронхиальной астмой.

Заключение: таким образом, изучение частоты встречаемости сопутствующих заболеваний детей с атопическим дерматитом показал, что эта нозология очень часто встречается с гельминтозами

Список литературы:



1. Смирнова Г. И. Современные технологии диагностики и лечения тяжелых форм аллергодерматозов у детей. – М. – Тверь: Альба Плюс, 2016. – 156 с.
2. Flohr C., Mann J. New insights into the epidemiology of childhood atopic dermatitis // Allergy. – 2014; 69 (1): 3–16.



Сравнительный анализ лечения пациентов с центральной серозной хориоретинопатией Республиканский Специализированный Научно-Практический Медицинский Центр Микрохирургии Глаза

Насирова Мафтуна Абдурахмон кизи

Стажер, Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза. mafa_n@bk.ru

Каримова Муяссар Хамитовна

Доктор медицинских наук, профессор, заместитель директора по научной части Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза, mkarimova2004@mail.ru

Актуальность: Центральная серозная хориоретинопатия (ЦСХР)- одно из распространенных заболеваний макулярной области сетчатки [1]. Заболевание характеризуется возникновением отслойки нейроэпителия с наличием субретинальной жидкости, преимущественно у лиц мужского пола в трудоспособном возрасте [2].

Цель исследования: оценить эффективность лазерной микроимпульсной терапии у пациентов с центральной серозной хориоретинопатией

Материал и методы исследования: всего было обследовано 52 пациента (52 глаз) с ЦСХР в острой стадии. Все обследования проводились на базе Республиканского Специализированного Научно - Практического Медицинского Центра Микрохирургии Глаза. Все пациенты проходили через стандартные и специальные методы исследования. К специальным мы включили оптическую когерентную с ангио-режимом (ОКТА) и флюоресцентную ангиографию (ФАГ). Пациенты были разделены на 2 группы: I- основную группу составили 27 пациентов (27 глаз) с ЦСХР в острой стадии. Данным пациентам было рекомендовано применение микроимпульсной лазерной терапии 577 нм в зонах просачивания, выявленных на ФАГ, а также инстилляцией капель Бромфенака 0.09% по 1 капле 1 раз в день в течение месяца. II- контрольную группу составили 25 пациентов (25 глаз) с ЦСХР в острой стадии. Этим пациентам было назначено инстилляцией капель Бромфенака 0.09% по 1 капле 1 раз в день в течение месяца. Средний возраст пациентов составил 34.5 ± 2.3 лет. Операции проводились на приборе EasyRet 577(Quantel Medical- France) в микроимпульсном режиме.

Результаты исследования: средняя максимальная скорректированная острота зрения (МКОЗ) до лечения была сопоставима в обеих группах и составила 0.48 ± 0.08 . Средняя толщина макулярной зоны (ТМЗ) была примерно одинаковой в обеих группах и составила 440.8 ± 23.4 нм. После лечения в 1-ый



месяц наблюдения средняя МКОЗ пациентов достигла 0.81 ± 0.05 , а у пациентов контрольной группы был равен 0.63 ± 0.07 . Средняя ТМЗ у пациентов основной группы после лечения была равна 278.2 ± 12.4 нм, а у пациентов контрольной группы составила 321.5 ± 14.4 нм. Резорбция субретинальной жидкости (СРЖ) произошла в 100% случаев после лечения у пациентов основной группы. В 28% случаев остаточная СРЖ сохранялась у пациентов контрольной группы.

Заключение: применение микроимпульсной лазерной терапии длиной волны 577 нм, является безопасным и высокоэффективным методом, что позволяет не только повысить функциональные данные пациентов, но и восстановить нормальную анатомию центральной зоны сетчатки.

Список литературы:

1. Пшеничнов М.В., Кравченко И.З., Сорокин Е.Л., Коленко О. В.- Современные технологии в Офтальмологии 2016
2. Педанова Е.К., Клепинина О.Б., Майорова А.М.- Современные технологии лечения глазных заболеваний 2017



Оценка эффективности факоемульсификации катаракты у пациентов со средней плотностью ядра Республиканский Специализированный Научно-Практический Медицинский Центр Микрохирургии Глаза

Каримова Муяссар Хамитовна

Доктор медицинских наук, профессор, заместитель директора по научной части Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза, +998(90)1883861

mkarimova2004@mail.ru

Насирова Мафтуна Абдурахмон кизи

Сажер, Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра микрохирургии глаза. +998(97)5787492

mafa_n@bk.ru

